



## O'ZBEKISTON BILAN AQSH O'RTASIDAGI KO'P QIRRALI HAMKORLIK MUNOSABATLARI YANADA RIVOJLANTIRILADI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Amerika Qo'shma Shtatlari Kongressi a'zosi, O'zbekiston bilan hamkorlik bo'yicha parlament kokusi ishtirokchisi Kerol Miller boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.



O'zbekiston bilan AQSH o'rtasidagi strategik sheriklik va ko'p qirrali hamkorlik munosabatlarini yanada rivojlantirish va

kengaytirish masalalari ko'rib chiqildi. Uchrashuv avvalida parlament a'zosi davlatimiz rahbariga AQSH Prezidenti,

Kongress rahbariyati va O'zbekiston bo'yicha kokus a'zolarining salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

Ikki tomonlama hamkorlikda yuqori darajaga erishilgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi. Faol siyosiy muloqotlar va idoralararo almashinuvlar davom etmoqda. Keyingi yillarda tovar ayirboshlash va investitsiyalar hajmi bir necha barobar ortdi, biznes kooperatsiyasi kuchaymoqda.

Toshkent shahrida Vebster universiteti va Amerika texnologiya universiteti faoliyat ko'rsatmoqda.

Bundan tashqari, transport, bojxona, migratsiya, madaniyat va boshqa ustuvor yo'nalishlarda o'zaro manfaatli hamkorlik amalga oshirilmoqda.

Kerol Miller Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar strategiyasi, jumladan, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, demokratik institutlarni, eng avvalo, parlamentni mustahkamlash, gender tenglikni ta'minlash borasidagi ishlar natijalarini yuksak baholadi.

Iqtisodiy va investitsiyaviy loyihalarni, shu jumladan, tog'-kon, sanoat, energetika, qishloq xo'jaligi sohalaridagi loyihalarni qo'llab-quvvatlash va ilgari surish maqsadida parlamentlararo hamkorlikni kengaytirishga alohida e'tibor qaratildi.

O'zbekiston hududlarining Amerika shtatlari bilan sheriklik aloqalarini yo'lga qo'yish muhimligi qayd etildi.

Mintaqaviy kun tartibidagi dolzarb masalalar va Afg'onistondagi vaziyat yuzasidan ham fikr almashildi.

O'ZA

## AHOLI TURMUSH DARAJASINI YAXSHILASHGA QARATILGAN LOYIHALAR IQTISODIYOT RIVOJI UCHUN MUHIM

Prezident Shavkat Mirziyoyev 17-mart kuni ichimlik suvi va issiqlik ta'minoti, mahallalar obodligi va qishloq xo'jaligi bilan bog'liq masalalar bo'yicha videoselektor yig'ilishi o'tkazdi.

Aholining hayot sifatida muhim bo'lgan bunday ishlar qamrovi kengayib bormoqda. Bu yil 1 ming 619 kilometr ichimlik suvi, 521 kilometr oqova suv tarmoqlarini tashish, tizimdagi 162 ta inshootni qurish va rekonstruksiya qilish rejalashtirilgan. Bularning natijasida 715 ming aholiga ilk bor toza ichimlik suvi yetib boradi, 135 ming xonadon oqova tarmog'iga ulanadi, 157 ming iste'molchiga zamonaviy hisoblagich o'rnatiladi.

Yaqinda davlatimiz rahbarining Fransiya tashrifi doirasida Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida ichimlik suvi bo'yicha 340 million yevrolik 3 ta loyiha kelishildi. Jumladan, Fransiyaning "Suez" kompaniyasi Denov, Sho'rchi, Sariosiyo va Qumqo'rg'ondagi ichimlik suvi ta'minotini xususiy boshqaruvga olyapti. Natijada viloyatda markazlashgan ichimlik suvi qamrovi 90 foizga yetishi kutilmoqda.

Oqova tarmog'i mavjudligi qurilish, sanoat va xizmatlar rivoji uchun muhim omil. Uni kengaytirish uchun byudjetdan har yili trillionlab mablag' sarflanmoqda. Lekin faqat shunga qarab qolmasdan, sohaga xususiy sektorni kengroq jalb qilish zarurligi ko'rsatib o'tildi.

Masalan, mahalliy tadbirkor Osiyo taraqqiyot banki ishtirokida Olmaliq, Bekobod, Angren va Chirchiq shahrida oqova suv tozalash inshootlarini quraypti. Yana bir tadbirkor Andijondagi ikkita tumanda suv va oqova xizmatlarini xususiy boshqaruvga olish tashabbusi bilan chiqqan.

Shu kabi xususiy sheriklik loyihalarini ko'paytirish, yirik korxonalarimizning xalqaro tenderlarda qatnashish imkonini kengaytirish muhimligi ta'kidlandi.

Xalqaro moliya institutlari ishtirokidagi loyihalarni amalga oshirish jarayonini soddalashtirish bo'yicha qaror qabul qilindi. Endi tenderlarni tezlashtirib, yil yakunigacha 850 million dollarlik ishlarni bajarish topshirig'i berildi.

Yana bir muhim vazifa — sohani raqamlashtirish. Buning uchun Osiyo taraqqiyot bankidan 125 million dollar jalb qilinishi belgilangan. Besh yilda yirik suv inshooti va magistral quvurlarga 4 ming 800 ta "aqli" hisoblagich, 2 ming 800 ta telemetriya tizimi o'rnatish ko'zda tutilgan.

Bu elektrotexnika sanoati uchun katta bozor ekani qayd etilib, hisoblagich ishlab chiqarishni ko'paytirish, ularga xizmat ko'rsatishni bosqichma-bosqich xususiy sektorga o'tkazish bo'yicha ko'rsatma berildi.

Issiqlik ta'minoti tabiiy gaz eng ko'p sarflanadigan sohalaridan biri. Shu bois, 11-mart kuni bu sohani tubdan isloh qilish va energiya samaradorligini oshirish bo'yicha Prezident qarori qabul qilindi. Unga muvofiq, "Issiqlik ta'minoti" kompaniyasi tashkil etilib, hududlardagi 23 ta korxonaga uning tarkibiga o'tkazildi. Keyingi besh yilda issiqlik tizimlarini tiklash uchun 19 trillion so'm yo'naltirildi. Markazlashgan issiqlik ta'minoti qamrovi 37 foizdan 58 foizga yetadi.

O'ZA

## Buyuk o'zbek yo'li

# ONG, DUNYOQARASH, FIKR O'ZGARMASA, JAMIYAT O'ZGARMAYDI

Odamlarda makon o'zgarishlari favqulodda holatlar, urush va turli ixtiloflarni yuzaga keltirgan. Millatlar tomonidan yo'qotilgan makonlar ming yillik urushlarga sabab bo'lgan. Muqaddas kitoblar, xususan, Qur'oni karimda insonga makonni, ya'ni vatanni imon qadar e'zozlash, unga munosib bo'lish, obod qilish, o'zgartirish, zamoni esa yaxshilash maqsadida o'zgartirishga rag'bat etilgan. Zamoni o'zgartirish borasidagi sa'y-harakatlar barcha renessanslar va insoniyatning aqliy, iqtisodiy, ma'naviy hamda texnologik taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchi bo'lib kelgan.



### O'zgarishlarga da'vat

O'zgarishlarga ilohiy da'vat barcha muqaddas kitoblarda bitilgan, Hazrati Odaming Yerga tushirilishi davridan boshlanadi. Odamzodga o'z mehnati bilan hayotni o'zgartirish, yerni yaxshilash yaroqli qilish va uni obod makonga aylantirish vazifasi yuklatilgan. Makon obodligiga erishish esa zamoni, vaqtga bo'lgan munosabati o'zgartirishdan boshlanadi.

Obodlikka erishish rag'batini va harakati omad hamda barakat manbaidir. O'zgarishlar qilish ijtimoiy zarurat hisoblanadi va aynan o'zgarishlarga makonni yaxshilash, tabiat, jamiyat va insonni takomillashtirishga imkon ekani muqaddas kitoblarda, hadisi shariflarda uqritilgan.

Davomi 3-betda

## KORRUPSIYAGA OID QILMISHLAR UCHUN JINOIY JAVOGBARLIKNI TAKOMILLASHTIRISH ZARURATI NIMADA?

Korrupsiya davlatlarning iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotiga jiddiy to'siq sifatida jahon miqosida eng dolzarb muammolar sirasiga kiradi. Shu sababli bugun unga qarshi kurashish ko'plab davlatlar va xalqaro tashkilotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan.

Jumladan, O'zbekistonda ham xalqaro standartlarga uyg'un ravishda korrupsiyaga oid jinoyatlarga javobgarlik muqarrarligini ta'minlash bo'yicha qonunchilik tizimini takomillashtirishga davlat boshqaruvining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralayapti. Xususan, davlatimiz rahbari tashabbusi bilan qabul qilingan "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonun jahon hamjamiyati tomonidan eng muhim strategik qadam sifatida e'tirof etildi.

Mazkur qonun ijrosini samarali tashkil etish va sohada parlament nazoratini ta'minlash maqsadida Oliy Majlisning har ikki palatasida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qo'mitalar faoliyati yo'lga qo'yildi. Vakolatli davlat organlari va jamoat tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi tashkil etildi.

Davomi 2-betda



## "Dolzarb bir oylik" safarbarligi YERI BOR ODAM KAMBAG'AL BO'LMAS

Jizzaxda yangi tizim asosida tomorqa va ijara yerdan samarali foydalanish orqali aholi daromadini oshirishga bag'ishlangan ko'chma ko'rgazmali seminar tashkil etildi. Unda viloyatdagi 58 ta og'ir mahallaga birlashtirilgan tashkilotlar rahbarlari, hokim o'rinbosarlari, hududiy tijorat banklari rahbarlari, kambag'allikni qisqartirishga mas'ullar, mahalla raislari ishtirok etdi.

Seminar kun tartibida tomorqachilik ko'rsatilgan bo'lsa-da, amalda muhokama mavzusi ham, geografiasini ham ancha keng bo'ldi. Chunki endi hududlarda mahalla aralashmaydigan sohaning o'zi yo'q. Oddiy to'y-ma'rakadan tortib, davlatimizning ustuvor sohalar taraqqiyotini belgilovchi dasturlarigacha mahalladagi katta-kichik bilan bamaslahat, ko'pchilik bilan kengashib amalga

oshirilyapti. Mahalla boshqaruvida azaldan qaror topgan bu tarixiy qadriyat bugun yurtimiz ravnaqiga qaratilgan vazifalar ijrosida ham samarali qo'llanmoqda. Shu bois, ko'chma ko'rgazmali seminar Jizzax shahridagi loyihalarni, mahallalardagi obodonlashtirish ishlari bilan tanishuvdan boshlandi.

Davomi 4-betda

## HAYOT BOG'LARINING BOG'BONIGA AYLANAYLIK!



Ko'klam sepinu yoygan ayni kunlarda yurtimizda bahorgi ishlar jadal boshlanib ketdi. Xususan, shahar-u qishloqlarda, dala-yu qirlarda bog'-u rog'lar barpo etishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Davomi 4-betda

# KORRUPSIYAGA OID QILMISHLAR UCHUN JINOIY JAVOBGARLIKNI TAKOMILLASHTIRISH ZARURATI NIMADA?

## Boshlanishi 1-betda

Shuningdek, xalqaro standartlarga mos ravishda korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha maxsus vakolatli davlat organi — Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi ochildi. Hozir ushbu agentlik sohada davlat siyosatini tizimli va samarali yuritish bilan shug'ullanmoqda.

O'zbekistonda aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, korruptsiyaning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish hamda korruptsiyaga oid huquqbuzarliklar uchun muqarrar javobgarlikni ta'minlash bo'yicha korruptsiyaga qarshi kurashishning uch yo'nalishidan iborat barqaror milliy modeli ishlab chiqildi.

So'nggi yillarda jamiyatimizning har bir sohasida izchil amalga oshirib kelinayotgan islohotlar markazida korruptsiyaga qarshi kurashish ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda. Bu jarayonda har ikki yilga mo'ljallangan davlat dasturlari bevosita O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanib, ijroga qaratilishi korruptsiyadan xoli muhitga erishish yo'lida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ushbu yo'nalishdagi ishlar sarhisobi bo'yicha Korruptsiyaga qarshi kurashish milliy kengashining joriy yil 5-martda o'tkazilgan navbatdagi yig'ilishi sohada yangi sahifa ochdi. Yig'ilishda davlatimiz rahbarining korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ilgari surgan 55 tashabbusi sohadagi sa'y-harakatlarni yangi bosqichga olib chiqish uchun mustahkam zamin hozirladi.

Jumladan, davlat xaridlarida inson omilini qisqartirish, yirik loyihalarni yuqori darajadagi korruptsiyaga qarshi standartlardan kelib chiqib baholash, yoshlarning ushbu sohada bilimini oshirish va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, kiber korruptsiyaga qarshi



**USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!**

**So'nggi yillarda jamiyatimizning har bir sohasida izchil amalga oshirib kelinayotgan islohotlar markazida korruptsiyaga qarshi kurashish ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda. Bu jarayonda har ikki yilga mo'ljallangan davlat dasturlari bevosita O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanib, ijroga qaratilishi korruptsiyadan xoli muhitga erishish yo'lida muhim ahamiyat kasb etmoqda.**

kurashishda huquqiy bazani shakllantirish, korruptsiyaga oid jinoyat qonunchiligini takomillashtirishga doir qator tashabbuslar bildirildi. Bunda davlat xizmatchilarining aktiv va daromadlarini deklaratsiya qilish hamda noqonuniy boylik orttirganlik uchun

javobgarlik belgilash Prezidentimizning korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi muhim tashabbuslaridan biri bo'ldi.

Ushbu tashabbus BMtning Korruptsiyaga qarshi konvensiyasi 20-moddasi talablariga to'liq mos keladi.

Davlat xizmatchilarining noqonuniy yo'l bilan boylik orttirgani uchun javobgarlik korruptsiyaga oid jinoyatlarga qarshi kurashda samarali mexanizmdir.

Noqonuniy boylik orttirish deganda, shaxsning qonuniy daromad manbalariga mutanosib bo'lmagan tarzda moliyaviy yoki moddiy manfaatlarini ko'lga kiritishi tushuniladi. Bu esa davlat xizmatchilarining daromadi va xarajatini deklaratsiya qilish orqali o'z aktivlari, masalan, xarid qilgan ko'chmas yoki ko'char mulkini qonuniy yo'l bilan topgan daromadi asosida orttirganini isbotlash majburiyatini nazarda tutadi.

Ushbu xatti-harakat uchun javobgarlik masalasi davlat xizmatchilarining daromadi va xarajatini deklaratsiya qilish tartibi bilan uzviy bog'liq. Mazkur tartib xalqaro standart va qonunchilik prinsiplariga muvofiq deklaratsiya qilinadigan mol-mulk va daromadning aniq ro'yxati, deklaratsiya qilishning aniq muddati, davlat xizmatchisi va oila a'zolari mol-mulkini nazorat qilish tartibi, shuningdek, ma'lumotlar taqdim etmaslik yoxud yolg'on ma'lumotlarni taqdim etganlik uchun javobgarlik kabi talablarni qamrab olishi kerak.

Xorijiy davlatlar tajribasida ushbu tartib dastlab ayrim munozaralarga ham sabab bo'lgan. Bu turdagi javobgarlik aybsizlik prezumpsiyasiga diz hisoblanishi va noaniq ayblovlar olib kelishi mumkinligi ehtimol qilingan. Xususan, 1994-yilda Italiya Konstitutsiyaviy sudi tomonidan noqonuniy boylik orttirish uchun javobgarlik belgilovchi qonun shaxsning aybsizlik prezumpsiyasiga diz bo'lgani sababli bekor qilingan. Shunga qaramay, xorijiy davlatlar qonunchiligida ushbu turdagi javobgarlikning uchta farqli modelini ko'rish mumkin.

Birinchi, to'g'ridan to'g'ri jinoiy javobgarlik shaklida, ya'ni Lotin Amerikasi, Osiyo va Afrikaning ba'zi mamlakatlari

qonunchiligida noqonuniy boylik orttirish alohida tarkibli jinoyat sifatida belgilanib, aktivlarning qonuniyligini isbotlash ayblanuvchi zimmasiga yuklangan. Misol uchun, Argentina Jinoyat kodeksining 268(2)-moddasida davlat mansabdor shaxsi orttirgan mol-mulk qonuniy daromadidan asossiz ravishda oshib ketgani uchun ikki yildan olti yilgacha ozodlikdan, shuningdek, davlat lavozimlarini egallash huquqidan mahrum qilish bilan jazolanishi hamda mol-mulki musodara etilishi belgilangan.

Ikkinchi, fuqarolik-huquqiy javobgarlik shakli, ya'ni AQSH, Buyuk Britaniya, Rossiya va boshqa ayrim davlatlarda agar aktivlar noqonuniy orttirilgan bo'lsa, ayblik masalasi hal etilmay turib mol-mulk musodara qilinadi. Masalan, Rossiya davlat xizmatchisi mol-mulkini qonuniy daromadi hisobiga orttirganini isbotlay olmasa, prokuratura organlari tomonidan ushbu mol-mulki davlat hisobiga musodara qilish bo'yicha fuqarolik protsessual tartibda sudga da'vo arizasi kiritiladi.

Uchinchi, Fransiya va Germaniya kabi Yevropa mamlakatlarida kuzatiladigan korruptsiyaviy jinoyatlar doirasida ko'rib chiqish shaklidir. Bunda noqonuniy boylik orttirish alohida jinoyat emas, balki korruptsiyaga oid jinoyatlarning bir qismi sifatida kvalifikatsiya qilinadi. Xususan, Germaniyada davlat xizmatchisining noqonuniy mol-mulk orttirgani u tomonidan to'ldirilgan deklaratsiyada aniqlansa, ushbu mol-mulkning korruptsiyaga oid qaysi jinoyatlar natijasida qo'lga kiritganlik holati tekshiriladi. Bu holatda shaxsning aybsizlik prezumpsiyasiga amal qilgan holda tergov ishlar boshlanib, jinoyat qonunchiligida belgilangan javobgarlik choralarini qo'llanadi.

Mazkur masala yuzasidan Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti Istanbul

harakatlar rejasida davlatlar, xususan, O'zbekistonning korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyati monitoringi natijalari bo'yicha ushbu turdagi qilmish uchun qonunchilikda javobgarlik belgilash bo'yicha qator tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Unda milliy qonunchilikda "noqonuniy boylik orttirish" tushunchasiga aniq, turlicha talqin qilinishiga yo'l qo'yilmaydigan ta'rif berish, deklaratsiya qilinishi talab etiladigan aktivlarning quyi chegarasini belgilash, jinoyatning obyektiv tomoni jinoyat qonunchiligining asosiy prinsiplariga muvofiq ravishda aniqlashtirish zarurligi nazarda tutilgan.

Shuningdek, Jahon banking ham noqonuniy boylik orttirish uchun javobgarlikni belgilashga oid shu mazmundagi tavsiyalari mavjud. Boshqa xalqaro institutlardan farqli ravishda ushbu tashkilot davlat xizmatchilarining mazkur qilmishni sodir etishiga sabab bo'luvchi omillarni bartaraf etish hamda ularning oldini olish yuzasidan bilim va malakasini muntazam oshirib borishga alohida e'tibor qaratish lozim deb biladi. Ushbu institutni milliy qonunchiligimizga tatbiq etish masalasi soha olimlari tomonidan ilmiy-amaliy yondashuvlar asosida puxta tahlil qilinishi zarur.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, O'zbekistonda korruptsiyaga qarshi kurashish tizimi rivojlanishining yangi bosqichida kutilayotgan o'zgarishlar korruptsiyadan xoli muhit shakllanishi, mamlakatning xalqaro darajada ijobiy e'tirof etilishi, investitsiyaviy muhit yaxshilanishiga xizmat qiladi.

**Yevgeniy KOLENKO, Huquqni muhofaza qilish akademiyasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari**

## O'ZBEKISTON – FRANSIYA: STRATEGIK SHERIKLIK TOMONLARGA KATTA MANFAAT KELTIRADI

Prezidentimizning 11-13-mart kunlari Fransiyaga davlat tashrifi strategik ko'lamli va shukuhiga ko'ra umuman boshqacha bo'ldi. Bunday deyishimiz uchun yetarli va asosli sabablar bor, albatta.

Birinchidan, O'zbekiston yetakchisi 30 yildan ziyod davr mobaynida Fransiyaga ilk marta davlat tashrifini amalga oshirdi.

Ikkinchidan, tashrifda Prezidentlar tomonidan imzolangan Strategik hamkorlik deklaratsiyasiga muvofiq, Fransiya O'zbekistonning strategik hamkoriga aylandi.

Uchinchidan, davlat tashrifi doirasida 6,5 milliard yevrolik kelishuvga erishildi. E'tiborsiz, qo'shma loyihalar portfelini 12 milliard yevrodan ziyodni tashkil etmoqda.

Biz fransuzlar bilan uzoq tarixiy aloqalarga ega xalqimiz. Bu Buyuk ipak yo'li davriga borib taqaladi. O'sha davrlardan beri ikki xalq o'rtasida savdo-iqtisodiy, siyosiy aloqalar yo'lga qo'yilgan. Bu, ayniqsa, Sobihqiron Amir Temur davrida eng yuqori cho'qqiga chiqqan. O'shanda Amir Temur va Sharh VI o'zaro savdo aloqalarini rivojlantirishni orzu qilgan. Ushbu orzuni bugun Shavkat Mirziyoyev va Emmanuel Makron real voqeikka aylantirdi.

Keyingi yillarda O'zbekiston — Fransiya aloqalari barcha sohalarda izchil rivojlanmoqda. Bu tashrif doirasida erishilgan kelishuvlar ana shu munosabatlarni yangi tarixiy bosqichga ko'tardi.

Prezidentimizning Yevropaga ilk tashrifi 2018-yilda Fransiyaga bo'lgan edi. U rivojlangan industrial-agrar mamlakat, sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha dunyoda yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Iqtisodiy salohiyati bo'yicha Fransiya eng rivojlangan yetti davlat qatoriga kiradi.

Prezidentimizning 2018-yil oktabr va 2022-yil noyabrda Fransiyaga rasmiy tashriflari, shuningdek, Fransiya Prezidenti Emmanuel Makronning 2023-yil noyabrda mamlakatimizga tashrifi barcha sohalardagi siyosiy mulqot va hamkorlikni izchil rivojlantirishga yangi sur'at bag'ishladi.

Shu o'rinda ikki davlat o'rtasidagi madaniyatdaro mulqotini rivojlantirish doirasida Samarqand va Lion, Buxoro va Ruy-Malmezon shaharlari, Jizzax viloyatining Zomin tumani va Flyor shahri o'rtasida birodarlik aloqalari o'rnatilgan alohida qayd etish kerak.

Fransiya Tibbiyot akademiyasida Abu Ali ibn Sino byusti o'rnatilgan. Shuningdek, Ruy-Malmezon, Tuluza, Grets-Armenvil shaharlarida ikki davlat xalqlari o'rtasidagi do'stona munosabatlarni timsoliga aylangan Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek va Abu Rayhon Beruniy haykallari o'rnatildi hamda "O'zbek



bog'larini" barpo etildi. Ilmiy hamkorlik haqida so'z borganida, temuriylar davri san'ati va tarixini o'rganish assotsiatsiyasi hamda "Avisenna Fransiya" uyushmasining Fransiya davlati faoliyatini alohida ta'kidlash joiz. Bu uyushmalar O'zbekiston madaniy va ilmiy merosini o'rganish hamda uni Fransiya jamoatchiligi orasida keng targ'ib qilishga katta hissa qo'shayotir.

O'zbekiston Prezidentining Fransiya tashrifida hamkorlikning ko'plab yo'nalishlari, jumladan, iqtisodiyot, madaniyat, fan va ta'lim sohaslariga e'tibor qaratilgani ikki davlat o'rtasida o'zaro manfaatdorlik va ishonch kuchayib borayotganidan dalolat.

Bu davlatimiz rahbarining Fransiya uchun tashrifi. Mazkur tashriflarni o'zaro taqqoslasak, Fransiya xalqi va Prezidentining O'zbekistonga munosabati o'zgarayotganini ko'rish mumkin. Ushbu tashrif o'tgan sakkiz yildagi yangi O'zbekiston islohotlarining mevasi, desak mulbog'ga bo'lmaydi. Chunki xorijlik ekspertlar, investorlar sarmoya kiritmoqchi bo'lgan davlatdagi islohotlarni ko'rsa, ishoncha, shundan keyingina munosabati o'zgaradi. Zero, ikki davlat savdo-iqtisodiy va sarmoyaviy hamkorlikni rivojlantirishdan manfaatdor. O'zbekistonda yaratilgan qulay ishlabarmonlik muhiti va sarmoyaviy imkoniyatlar fransuz biznes vakillarini tobora ko'p jalb qilmoqda.

O'z navbatida, O'zbekiston Fransiya texnologiyalarini jalb etish, sanoat va ishlab chiqarish sohaslarida ilg'or tajribalardan foydalanish, o'zaro sayyohlik almashinuvini kengaytirishdan manfaatdor. Eng muhimi, dunyo yangi O'zbekistonni tan olish bilan birga undagi islohotlarga ishonayapti.

Tashrif doirasida Parij shahrida O'zbekiston Prezidenti Fransiya Respublikasining oliy mukofoti — Faxriy legion ordeni bilan taqdirlandi. Yuksak mukofotni Fransiya Prezidenti Emmanuel Makron tantanali ravishda topshirdi. O'zbekiston Prezidenti ikki mamlakat hamkorligini rivojlantirish, xalqlarimiz o'rtasidagi do'stlik va o'zaro anglashuvni mustahkamlashga qo'shgan ulkan hissasi uchun ushbu ordeniga sazovor bo'ldi. O'zbekiston rahbarining ikki davlat o'rtasidagi strategik sheriklik munosabatlarini rivojlantirishdagi xizmatlari e'tirof etilgani mamlakatimizning xalqaro obro'-e'tibori, jahon miqyosidagi mavqeiini mustahkamlashda katta yutuq.

Davlat tashrifi davomida ikki mamlakat yetakchilari imzolagan muhim hujjatlar orasida Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi bilan Fransiya Madaniyat vazirligi, Madaniy meros milliy instituti va Markaziy Osiyo tadqiqotlari instituti o'rtasidagi hamkorlik bitimlari bor. Bu barcha yo'nalishlar qatori xalqlarimiz o'rtasida madaniyat, san'at, ilmiy tadqiqotlar sohasidagi hamkorlik yanada rivojlanadi deganidir.

Qisqasi, ushbu tashrif ikki davlat o'rtasidagi strategik sheriklikni mustahkamlash, iqtisodiy o'sish va madaniy almashinuv uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochdi.

**Mansur MUSAYEV, Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti bo'lim boshlig'i, siyosiy fanlar doktori**

## Bugunning gapi

# ELEKTROTEXNIKA SANOATI yirik mahalliy tarmoqlardan biri

Elektrotexnika sanoati so'nggi yetti yilda yurtimizning yirik mahalliy tarmog'iga aylandi. Shu vaqt ichida tarmoqda ishlab chiqarish hajmi qariyb 2 barobar, eksport hajmi 7 barobar o'sib, geografyasi 63 ta davlatga yetgani buning tasdiqi. O'tgan yili 31 trillion so'mlik elektrotexnika mahsulotlari ishlab chiqarilgani, joriy yilda bu ko'rsatkichni 43 trillion so'mga yetkazish maqsad qilingani, shuningdek, eksport hajmini 1,2 milliard dollarga oshirish rejalashtirilgani yanada diqqatga sazovor.



Davlatimiz rahbarining joriy yil 22-yanvardagi "Elektrotexnika sanoatini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida sohada malakali mutaxassislar qamrovini oshirish, yoshlarni talab yuqori kasblarga o'qitish borasida qator vazifalar belgilanganini inobatga olsak, mazkur yo'nalishdagi ishlar yanada jadallashadi. Chunki qarorga ko'ra, elektrotexnika sanoati va unga yondosh sohalarni rivojlantirish, yuqori texnologiyali mahsulotlarni ishlab chiqarishni rag'batlantirish hamda yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish, ilmiy tadqiqot, tajriba-konstruktorlik ishlarini sohaga keng joriy etish maqsadida elektrotexnika sanoatini 2025-2027-yillarda rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari qayd etildi. Xususan, tarmoqda qo'shilgan qiymat ulushini o'rtaacha 21 foizdan 30 foizga va ishlab chiqarish hajmini 58 trillion so'mga, qayta ishlab jarayoniga ilg'or texnologiyalarni qo'llash, yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish va diversifikatsiya qilish hisobiga eksport hajmini yanada ko'paytirish ko'zda tutilmoqda.

Shu bilan birga, yuqori texnologiyalarga asoslangan elektrotexnika mahsulotlari ishlab chiqarishni hamda innovatsion g'oyalarni joriy etishni qo'shimcha rag'batlantirish orqali umumiy qiymati 4 milliard dollarlik investitsiya loyihalarini amalga oshiriladi. Ishlab chiqarish avtomatlashtirilib, raqamli boshqaruv tizimi joriy etiladi. Mahsulotlar raqobatbardoshligi yaxshilanadi. Qaror bilan elektrotexnika sanoatini rivojlantirishning 2025-2027-yillarga mo'ljallangan maqsadli ko'rsatkichlari ham belgilab olindi. Elektrotexnika sanoati va unga yondosh sohalarni rivojlantirish, yuqori texnologiyali mahsulotlarni ishlab chiqarishni rag'batlantirish bo'yicha "yo'l xaritasi" tasdiqlandi. "O'zeltexsanoat" uyushmasida malakali mutaxassislar tayyorlovchi markaz tashkil etildi. O'quv maskanida o'rta, oliy ta'lim va sohada faoliyat yuritayotgan yoki shu sohaga qiziqishi borlar yuqori malakali kadrlar etib tayyorlanadi.

O'quv muassasamizda tashkil etilgan markazda o'quvchilar birinchi kursga qabul qilingan kunidan boshlab oqaliyot bilan shug'ullanish imkoniyati yaratilgan, — deydi Chilonzor tumanidagi 1-politexnikum direktori o'rinbosari Sardor Akramov. — Talabalar

nazariy bilimlarini bevosita amaliyot bilan uyg'unlashtiradi. Bu yerdagi barcha qurilma va asbob-uskunalar mahalliy korxonalarda ishlab chiqarilgan. Ular orqali uskunalar qanday ta'mirlash, xizmat ko'rsatish borasidagi ishlar amalga oshirilmoqda.

"Yashil" energetika sohasida mintaqada xabga aylanib borayotgan O'zbekiston bugun mutaxassis tayyorlashda ham katta maqsadlarni ko'zlagan. Aynan ushbu markazda yurtimizning har bir hududidan kelgan yoshlar bilan birga qo'shni davlatlardan ham tinglovchilar kelib, bilim va tajribalarini oshirib ketmoqda.

Bu yerda o'qish tashkil etilganiga hali ko'p bo'lmaganiga qaramay, qo'shni mamlakatlardan o'quvchilar kelib, malaka oshirib ketmoqda, — deydi "O'zeltexsanoat" uyushmasi mas'ul xodimi Namoziy Tolpov. — Xususan, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikistondan kelgan tinglovchilar ish faoliyatini ham yo'lga qo'yishga ulgurdi. Albatta, bu biz uchun quvonarli hol. Chunki bu O'zbekistonda "yashil" energetika sohasini Markaziy Osiyoda yagona bo'lgan xabga aylantirish bo'yicha qo'yilayotgan qadaming amaliy ifodasidir.

Markazda elektrotexnika sanoatida yangi bilim va tajribalarni o'rganish uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan. Oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Xususan, Toshkent davlat texnika universiteti kafedrasida filiali ochildi. Unda mazkur oliy ta'lim muassasasi talabalari amaliy mashg'ulotlar o'tkazadi.

Talabalar amaliy mashg'ulotlar davomida nafaqat nazariy bilimlarini mustahkamlaydi, balki ishlab chiqarish jarayonlarini ham bevosita kuzatib, hatto unda ishtirok etmoqda. "Yashil" energetika sohasida mutaxassislar tayyorlash bo'yicha maxsus kurslar tashkil etilgan. Unda tashkil olgan yoshlarga maxsus sertifikat beriladi. Elektrotexnika, muqobil energetika sohasida xizmat ko'rsatish yo'nalishida kurslarni muvaffaqiyatli tamomlagan shunday o'quvchilar keyingi faoliyatini korxon va tashkilotlarda davom ettiradi. Markaz yoshlar uchun bugungi kunda talab yuqori bo'lgan kasblarni o'rgatish, qolaversa, "yashil" energetika sohasini yanada rivojlantirish uchun katta ahamiyat kasb etadi.

**Lutfulla SUVONOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri**

# ONG, DUNYOQARASH, FIKR O'ZGARMASA, JAMIYAT O'ZGARMAYDI



**Mansur BEKMURODOV,**  
sotsiologiya fanlari doktori,  
professor

**Boshlanishi 1-betda**

Yangi O'zbekistonda insonni rozi qilish, qadrini oshirishning huquqiy, iqtisodiy va ma'naviy asoslari yaratildi. Eng avvalo, Bosh qonunimizda "inson — jamiyat — davlat" uchligida insonning eng oliy qadriyat ekanini belgilandi. So'nggi to'qqiz yilda qabul qilingan qonunlar, Prezidentimiz farmon va qarorlari, O'zbekistonni jadal rivojlantirishga qaratilgan strategiyalar odamlar baxtli va farovon yashashning huquqiy asoslaridir.

"O'zbekiston — 2030" strategiyasidagi 100 maqsaddan 44 tasi insonning qadrini yuksaltirish, salohiyatini ro'yogga chiqarishga bag'ishlangan. Boshqacha aytganda, yangi O'zbekistonda bir-birini mehr bilan yaxshi ko'radigan, o'zaro qo'llab-quvvatlaydigan konsensus davlat va jamiyat barpo etildi. Insonlarni rozi qilish negizida barqaror shukronalikka erishishning ham mustahkam asosi yaratildi.

Xo'sh, odamlar qachon chin xurakat rozi bo'ladi? Qachonki, ularning orzu-umidlari ushalsa, o'z oldiga qo'ygan maqsadlari ro'yogga chiqsa va o'zlarini yaxshi ko'rgan kasbida, qiziqqan sohasida muvaffaqiyat qozonsa. Demak, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz hamda qonunlarimizda inson qiziqishi, intilishi, orzulariga mos sa'y-harakatlarning huquqiy asoslari yaratilishini fuqarolarning barqaror shukronaligi ta'minlanishi kafolati deyish mumkin.

Bugungi kunda yangi O'zbekistonda odamlarni kambag'allikdan chiqarish, ishsizlikka barham berish negizida barcha birlamchi ehtiyojlarining qondirilishi jarayoni faol kechmoqda. Bu jarayon odamlarda qanoatni, qoniqlikni kengaytirmoqda. Qachonki qoniqlik holatlari barqarorlashsa, odamlarda ikkilamchi ehtiyojlar, ya'ni o'z imkoniyatlari, iste'dodi va salohiyatini ro'yogga chiqarish negizidagi faoliyatga yanada kengroq yo'l ochiladi.

**Qanoat va shukur**

Qanoat insonning birlamchi ehtiyoji bilan bog'liq holat yoki tuyg'u, uning negizida kimgandir yoki nimadandir qoniqlik talabi yotadi. Odamlar davlat, jamiyat yoki oila tomonidan yaratilgan imkoniyatlar, tansiq noz-ne'matlardan foydalanayotgan paytda yuz bergan janjal, ixtiloflar biror muddat to'xtaganida, shuningdek, insonlarni mojarolar, o'zaro tushunmovchilik, kelishmovchilik barham topganida qanoat tuyg'usini tuyadi.

Qanoat ko'proq kutilgan, ammo avval yo'q narsalarga ega bo'linganda, ulardan foydalanish imkoniyati kengayganda ko'rinadi. Masalan, inson chnangqan paytda suv ichishi, oq cholganda



ovqatlanib, atrofda qilargalarga minnatdorlik izhor qilishi qanoatdir. Shuningdek, qanoat tuyg'usi odamning oila, tashkilot, jamiyat va davlatda muayyan o'zni borligini his etganida ham hosil bo'ladi.

Shukronalik esa mohiyatan qanoat tuyg'usining yuqori bosqichidir. Shukronalikda faqatgina yaratilgan imkoniyatlardan foydalanish, noz-ne'matlarni qabul qilishgina emas, balki ana shu ne'matlar, imkoniyatlarni boshqalar bilan birga yaratishi va baham ko'rishida namoyon bo'ladi. Demak, insonning

hayotda o'zining oz bo'lsa-da, o'rni borligidan rozilik tuyg'usi qanoat bo'lsa, shukronalik jamiyatda nafaqat o'rni, balki shu o'rni doirasida mas'uliyatni his etishi, hayotni yaxshilash uchun kerakli bo'lishini anglashida o'z ifodasini topadi. Shu bois, qanoatda moddiylik, birlamchi ehtiyojlar qondirilishidan mamnunlik ustuvor bo'lsa, shukronalik ko'proq ma'naviy tushunchadir. Shukronalikda insonning qornigina emas, balki shaxsi, ruhiyati, ma'naviyati va "meni" qadr topadi. Bu tuyg'u inson qadrining boshqalar — davlat va jamiyat tomonidan e'zozlanishi va e'tirof etilishida yanada yorqinroq aks etadi.

Inson o'zidagi shukronalikni teran anglashi va uning ko'lami doirasini doimo kengaytirib borishi kerak. Agar odamlar xotirjamlik, salomatlik va tinchlikka bir amallab erishgan bo'lsa, shu sudalikka qanoat qilinadi va "Ishqilib bala-qazo bo'lmasin", deb duo o'qiladi hamda xotirjamlik, tinchlik saqlab turilishi qanoat uyg'otadi. Agar tinchlik, xotirjamlik va hayot rivoji osudalikka barqaror davom etsa, bu jamiyatda konsensus muhiti o'rnatiladi, degani. Tinchlikning hamma tomondan faol qo'llab-quvvatlanishi va jamiyatda o'zaro totuvlik, ahillikning qadriyat sifatida anglanishi shukronalikning yuqori darajasidir.

**Oila, inson qadri va mentalitet**

Inson qadri odamning mental xususiyatlarini ham hisobga olishni taqozo etadi. Mentalitet atamasini inglizcha so'z bo'lib, "o'yilash", "tafakkur qilish", "fikrlash", "mulohaza yuritish" degan ma'nolarni beradi.

O'zbeklarda esa bu so'z xarakter, fe'l-atvor mazmuniga ega. Mohiyatan ular bir-birini inkor etmaydi. Chunki xarakter odatlanish, odatlanish esa biror narsaning hayotda foydali ekanini anglash orqali shakllanuvchi insoniy xususiyatidir. Demak, o'yilashga o'rgatish va farzandlarimizni qanday muammolar doirasida o'yilash, tafakkur qilish malakasini shakllantirish dastavval oilaga, ota-onaga bog'liq.

Prezidentimiz bugungi faol shaxsning tafakkur tarzi nechog'liq muhimligi xususida alohida to'xtalib bunday degandi: "Barchamiz yaxshi bilimimiz, insonning ongi va dunyoqarashi, fikri o'zgarmasa, jamiyat o'zgarmaydi. Bugun biz yashayotgan jamiyatga yangi fikr, yangi g'oya, eng muhimi, islohotlarni amalga oshirishga qodir bo'lgan yangicha tafakkur qiluvchi avlod kadrlari kerak".

O'sib kelayotgan bola unga ota-onasining munosabati va ko'rsatayotgan shaxsiy ibratidan kuch oladi. Boshqacha aytganda, insonni qadrlash jarayonining indallosini bola o'z uyi muhitida o'rganadi.

Ota-ona farzandlari tarbiyasiga qanchalik to'g'ri yondashsa, bola shaxsini qadrlasa hamda unga qancha ko'p vaqt ajratsa, uning keyingi hayoti uchun kerakli bo'ladigan, unga asqatadigan bilim, hunar, saboq bo'ladigan misollarni o'rgatsa, savob keltiruvchi xulq-atvor bilan qurollantirsa, bilingki, orzibgik kutilgan nufuzli marra kelajakda, albatta, eganlanadi.

**E'zozga munosiblik darajasi**

Inson qadri odamning muayyan ish va faoliyatga nechog'liq mosligi, davlat hamda jamiyat tomonidan unga ko'rsatiluvchi hurmat, e'zozga munosibligidan kuch oladi. Yangi

Ikkinchi omil, har bir inson tomonidan eganlangan kasbiy ko'nikma, yetarli darajadagi bilim, kasb-hunar egasi bo'lishi, uchinchi omil, dunyo axborot makoniga kirishga imkon beruvchi xorijiy tillarni puxta o'zlashtirganlik. Ana shu uch omil uyg'unligi insonning bugungi rivojlanish darajasi va ertangi istiqbol, jadal taraqqiyotga erishish yo'lini belgilaydi.

Aholining turli tabaqalari vakillari, ayniqsa, yoshlarni hayotning jadal sur'atiga moslashtirish, islohotlarning kuzatuvchisi emas, balki bevosita ishtirokchisiga aylantirish, yaratilayotgan imkoniyatlarga munosib qilish yurtimizda kechayotgan islohotlarning bosh maqsadidir.

Yoshlarning ibratga moyillik xususiyatlarini tufayli mamlakatimizda o'nlab yirik IT parklar, yoshlar ijod, hunar va sanoat zonalarini barpo etildi. Eng quvonarlisi, bugungi yigit-qizlar sport, ijod va ilm sohasida nafaqat yurtimizda, balki jahonda ham munosib o'rni ega bo'lgan yetakchi ijtimoiy qatlamga aylanmoqda. Birgina xorijiy tillarni o'zlashtirish masalasini olsak, yoshlarning xorijiy tillarni o'rganishiga intilishi alohida e'tiborga loyiq.

Masalan, mamlakatimiz yoshlari orasida 2024-yilda xalqaro IELTS sertifikatiga ega bo'lganlar soni 54 ming nafardan oshdi. Agar shu raqam 2016-yilgi ko'rsatkich bilan taqqoslanga, o'rtadagi farq 50 barobardan ko'p. Ilgari, ya'ni 9 yil avval respublikamiz bo'yicha atigi mingdan sal ko'proq odam xalqaro sertifikatlar sohibi bo'lgan. Xuddi shunday keskin yuksalish namunalari yoshlarimiz sport, san'at, xalqaro fan talovlarida ham namoyish etmoqda.

Garchi yangi O'zbekistondagi bugungi sa'y-harakatlar samaradorligi, bir qarashda, hayratlanarli bo'lsa-da, ikkinchi tomondan, odamlarning harakatlari islohotlar bilan hamohang maqsadlarimizga erishish sur'atlaridan ortda qolmoqda. Masalan, magistratura va doktorantura xotin-qizlarni imtiyozli qabul qilish, ularni davlat hisobidan o'qitish borasida reja bajarilmay kelyapti. Ya'ni magistraturaga ayollarning davlat hisobidan imtiyozli qabuli 70 foizga ham yetmadi. Ayollar ta'limning elita darajalariga mos ravishda



intilishi hali umummilliy harakat darajasiga chiqmadi.

Xuddi shunday holat doktoranturaga qabulda ham yaqqol ko'rindi. Xorijiy tillarni puxta bilish orqali doktoranturaga qabul rejasini 2023-yilda ham, 2024-yilda ham 60 foizdan oshmadi. Bu borada, afsuski, yaratilayotgan imkoniyatlarga munosib bo'lish darajasiga erishish sust ketmoqda. Holbuki, bugun biz turli faoliyat va rivojlanish sohaslariga munosiblikka namuna ko'rsatish, raqobatcha dadil kirishish, har bir o'rin uchun tanlash va tanlanish bosqichida bo'lishimiz kerak edi. Endigi vazifa munosiblik holati uchun intilishni umumjamiyat darajasiga chiqarishdir.

Yangi O'zbekistonda tez o'zgarayotgan zamon ruhiga moslashish har bir vatandoshimiz uchun bosh vazifaga aylinishi shart. Holbuki, o'zgarishga moslashish talabining o'zi ham faqat boshqalarga yetib yurishni anglatadi. Prezidentimiz tomondan bugun qo'yilayotgan marra faqat boshqalarga yetib yurishigina emas, balki o'zib ketish, o'zgarishlar tashabbuskori bo'lish, ergashuvchilik maqomidan ergashiruvchilik maqomiga o'tishdir.

Zero, davlatimiz rahbari alohida mehr va ishonch bilan aytganidek, o'zbek xalqi vaqtini imkoniyatga, imkoniyatni yutuqqa, yutuqni esa taraqqiyotga xizmat qildirishga qodir.

**Umuminsoniy qadriyatlar bilan sug'orilgan birlashuv g'oyasi**

Prezidentimiz yangi O'zbekistonni bunoyd etish uchun barchamiz birlashib, bir yoqadan bosh chiqarib, birligimizda harakat qilishimiz lozim, deya ta'kidlagan edi. Yakkil harakat



qilish, birdamlik bilan bir maqsadga erishishga intilish inson qadrini oshirish yo'lidagi barcha rejalarimizning harakatlantiruvchi kuchi ekanini tasdiqlaydi.

Amerikalik mashhur iqtisodchi va sotsiolog A.Smit odamlarning qadrini oshirish uchun ularni o'zaro birlashtirish hamda keng tafakkur yuritish salohiyatini kuchaytirish zarurligini ta'kidlaydi.

Jamiyat taraqqiyotida birlashishga intilish mazmunan bir xil bo'lmagan. Yaqin va uzoq tarix guvohlik beradiki, jamoaviy fikrni chalg'itish va soxta va dalal berish hisobiga odamlarni birlashtirishga erishgan johil "daho"lar xalqlar va insoniyat boshiga qanchadan qancha kulfat yog'dirgan. Shu bois, birlashish g'oyasining euzu va umuminsoniy qadriyatlar bilan sug'orilgani juda muhimdir.

Jamiyatda moddiy farovonlikning barqarorlashuvi va ma'naviy-axloqiy tamoyillar ustuvorligi ta'minlanishining

boshlandi. Inson manfaatlarini ko'zlab ishlash va yashash, davlat idoralarning xalqqa xizmat qilishi, jamiyatning barcha tabaqalari vakillari hayoti va turmush tarzini tubdan farovonlashtirishni ifoda qilgan Harakatlar strategiyasi O'zbekistonning mutlaqo yangicha amaliy taraqqiyotga keng yo'l ochib berdi. Shuningdek, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va 2025-yil uchun qabul qilingan davlat dasturi hamda "O'zbekiston — 2030" strategiyasi milliy taraqqiyotimizning huquqiy asosi, jadal rivojining o'ziga xos drayveri bo'ldi, desak yangilishmaymiz.

"Xalq davlatga emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak", "Inson manfaatlarini hamma narsadan ustun" shiorlarining davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi, Xalq qabulxonalarini, Prezident virtual qabulxonasi hamda har bir vazir, hokim va rahbarning fuqarolarni murojaat uchun ochiqdigi amaliyoti barqaror yo'lga qo'yildi. Demokratik islohotlar amalga oshirilib, so'z, matbuot erkinligi, ijtimoiy tarmoqlar uchun ochiqdigi amaliyoti barqaror tarqatish amaliyotiga keng yo'l ochildi.

Shuningdek, hozir kunda yurtimizda jamoatchilik fikrini o'rganish bo'yicha "Ijtimoiy fikr" markazi, O'zbekiston sotsiologlari assotsiatsiyasi, turli ijtimoiy tadqiqotlar o'tkazishga ixtisoslashgan o'ndan ziyod nodavlat uyushma va tashkilot faoliyat yuritmoqda.

Odamlarni rozi qilishga qaratilgan islohotlar o'z mohiyatiga ko'ra hamma va har bir odamni farovon qilish, intellektual kasbiy va ma'rifiy yuksaltirishni maqsad etgan. Xususan, aholining turli tabaqasi turmush tarzi, maqsad va qiziqishlarini xonadonma-xonadon yurib o'rganish, xatlovlar o'tkazish, ehtiyojmand oilalar va fuqarolarni "Temir daftar", "Ayollar daftar", "Yoshlar daftar" ro'yxatlariga kiritish hamda ro'yxatdan chiqarish mexanizmi, iqtidorli yoshlar uchun qulay rivojlanish imkoniyatini yaratish, nogironligi bo'lgan fuqarolarni doimiy ish, ta'lim va kasb o'rganish bilan band etish, "1+1" ("Bir tadbirkorga bir ishsiz yosh"), "1+10" ("Bir nuroniy — o'n yoshga murabbiy") tartibi asosida odamlarni bir-biriga bog'lab, ularni faollashtirish, vaziyatni tubdan yaxshilash siyosati shular jumlasidan.

Ayniqsa, ijtimoiy rivojlanishga kuchli turtki bergan katta islohot davlat xizmatini vertikal tizimini aholining eng quyi bo'g'igina ham yetkazish amaliyoti bo'ldi. Prezidentimizning 2022-yil 19-yanvardagi "Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida"gi qaroridagi xalqchil tamoyillarning hayotga joriy etilishi joylarda odamlarni rozi qilish va ayni vaqtda qadrini yuksaltirish ishlarini har kuni, har soatda amalga oshirib borilishini ifoda etadi.

**Birlashish — bog'lanish — yuksalish formulasi**

Islohotlar negizida nafaqat iqtisodiy natijalarni qo'lga kiritish, balki odamlarni birlashtirib, ularni o'zaro totuv qilish orqali farovon turmush darajasiga erishish maqsadi ham ustuvor. Tan olish kerak, avvalgi davrlarda odamlarning o'zaro birlashishga intilishi davlatga qarshi yashirin xavf hisoblangan.

Shuning uchun ham insonlarning o'zaro uyushib ketishiga yo'l berilmagan. Natijada davlat idoralari insonlarning tabiiy yaqinlashuv ehtiyojiasidagi birlashuvdan fozilant emas, illat, kamchilik izlash bilan mashg'ul bo'lgan. Endi esa iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va ma'naviy holat tubdan o'zgaradi. Davlatimiz rahbari tomondan ishlab chiqilgan "birlashish — bog'lanish — yuksalish" formulasi mamlakatimizni jadal taraqqiy ettirish strategiyasining asosiy tamoyili sifatida hayotga joriy etilmoqda.

Yurtimizda 2016-yil kuzidan boshlab misli ko'rilmagan jadal rivojlanish davri

sohasiga kirib, muvaffaqiyatlarga erishib, o'z qishlog'i, mahallasida ish beruvchi shaxsga aylanayotgani bugun hech kimni hayron qoldirmayapti.

Sobiq sho'rolar davrida aholining umumiy iqtisodiy va ijtimoiy holati bir-biriga birmuncha yaqin edi. Yangi O'zbekistonda fuqarolar ham moliyaviy, ham madaniy, ham intellektual jihatdan anchagina farqlanadigan jamiyatga aylandi. Shu asosda aholining hayoti, farovonlik darajasi, fikrlash tarzi, maqsadlari, did va saviyalari ham o'zgarib bormoqda. Ilgari odamlarni to'y, ma'raka, urf-odat, choyxona, ulfatchilik birlashtirib kelgan bo'lsa, endi ular siyosat, tadbirkorlik, sport, madaniyat yo'nalishidagi nuqtayi nazar, did, maqsad, qiziqish, umumiy dunyoqarash, san'at va boshqa omillar negizida birlashishga moyil bo'lmoqda.

Dunyodagi eng rivojlangan millatlarni, asosan, o'z milliy tiliga hurmat, vatani tarixiga ehtirom, milliy adabiyotiga mehr, san'at va madaniyatga bog'liqlik, milliy mentalitetga egalik, milliy xarakterga sodiqlik, vatanparvarlik, urf-odatlariga rioya etish, mustaqillik ne'matini ulug'lash qadriyatlarini ajratib turadi. Shu bois, yangi O'zbekistonda milliy xaylitligimizning ana shu muqaddas to'qqiz ustunining birortasi ham zaiflashuviga aslo yo'l qo'yilmagimiz lozim.

**"Aqli" monitoring — ijtimoiy zarurat**

Inson qadrini yuksaltirish uchun nafaqat real olamdagi holatni yaxshilash, balki virtual makondagi axborotlar bilan ham faol ishlash muhim ahamiyatga ega. Buning uchun, avvalo, jamiyatimizning ma'naviy intellektual yuzi bo'lgan obro'-e'tiborli shaxslar, noroniyar, el-yurt oldida martabasi uluqyati insonlarning shaxsiy veb-saytlarini yaratish va ularni faollashtirish, zarur bo'lsa, bunday insonlarga ko'makchilar va IT soha mutaxassislarini birlashtirish kerak.

Bunday obro'li va xarizmatik shaxslar bugungi hayotimiz va dunyoda yuz berayotgan voqea, jarayonlar haqida radio, televideniye hamda ijtimoiy tarmoqlardagi faktlarga o'zlarining malakali xulosalarini berib borishi, jamiyatda ijtimoiy va ma'naviy-siyosiy muhit barqarorligini asrashga xizmat qilishi shubhasiz.

Aynan shunday yondashuv, ya'ni jamiyatimizda yuz berayotgan voqea va jarayonlarga ommaviy axborot vositalari, radio, televideniye, internet orqali izhor etilayotgan axborotlar, ko'rsatuv va eshittirishlarning mazmuni, ijtimoiy qimmat, aholi ongi va qalbiga yetkazishi mumkin bo'lgan zararlarni tahlil etish, boshqacha aytganda, "aqli" monitoringni yo'lga qo'yish bugungi kunda ijtimoiy zaruratga aylandi.

Mazkur jarayonlar mazmunini davlat idoralari rahbar va xodimlari emas, birinchi galda, jamiyatimizda katta obro'-e'tiborga sazovor xarizmatik shaxslar baholab borishi, bir tomondan, katta ijtimoiy rezonans hamda bosiqlik muhitini yaratasa, ikkinchi tomondan, sotsiologiya fanini ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy va ayniqsa, siyosiy sohalarda yuz berayotgan jarayonlarning barometriga aylantiradi.

Shuningdek, inson kapitalini rivojlantirishning besh muhim tashabbusini joriy etish jarayonini uluksiz monitoring qilish, ayniqsa, aholining barcha tabaqalari vakillari kitob o'qishi jarayonini jamoatchilik nazoratiga olish va odamlarga yetkazib borish katta ijtimoiy ahamiyatga ega. Bir so'z bilan aytganda, hamma narsa va islohotlarning o'z holicha rivojlanishini jamoatchilik ko'zi oldida maqsadli taraqqiyot etirish holatiga o'tkazish ijiboy holdir.



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



yuz.uz

2025-yil – Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yili

## HAYOT BOG'LARINING

## BOG'BONIGA AYLANAYLIK!

## Boshlanishi 1-betda

So'nggi yillarda “Yashil makon” loyihasi doirasida keng ko'lami ishlar amalga oshirib kelinyapti. “O'zbekiston — 2030” strategiyasida yurtimizda yashilik darajasini 30 foizga yetkazish, har yili 200 million tup daraxt ekish, shuningdek, 2030-yilgacha 1984 ta yashil bog' barpo etish, barcha davlat idoralari, korxonalar, ta'lim muassasalari hududlarida shunday bog'lar yaratish ko'zda tutilgan.

Joriy yil 27-yanvarda Prezidentimiz ishtirokida “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yili davlat dasturi loyihasi yuzasidan o'tkazilgan yig'ilishda ham asosiy e'tibor ana shu maqsadga qaratildi. Ma'lumotlarga ko'ra, “Yashil makon” dasturi doirasida har yili 200 million tup daraxt ekilmoqda. O'tgan uch yilda 698 ta bog' va 316 ta jamoat parki, Orol dengizining qurigan tubida qariyb 2 million gektarli butazor barpo etildi.

Xo'sh, biz o'zimiz, har bir fuqaro bu borada qanday faoliyat ko'rsatyapmiz? Mahallamiz, qishlog'imiz, ko'chamiz, hovlimiz va uyimiz obodligi uchun nima qilaymiz? Har yili o'zimiz, oila a'zolarimiz bilan necha tup daraxt yoki gul ko'chatini ekdik? Ularning parvarishiga, unib-o'sishiga e'tibor qaratyapmizmi? Bu savollarga, afsuski, barchamiz ham birdaniga “ha” deya javob bera olmaymiz.

Yurtimizda mazkur yo'nalishda barchaga namuna bo'la oladigan, yaratish zavqi va sururi bilan yashayotgan fidoyi insonlar ko'p. Poytaxtimizning Chilonzor tumanidagi “Diyor” mahalla fuqarolar yig'ini hududida avval tashlandiq joy, chiqindixonona edi, buzilsa, yana o'shanday holga tushadi-da deb rozilik bermay, bog'dorchilikni davom ettiraverdim, — deydi Hakimjon aka. — Bog'ning toza havosidan qanchadan qancha aholi bahramand bo'lyapti, qolaversa, pishganda g'olomi, yong'oqmi, behimi, shafolimi — mevalar hosilidan qo'ni-qo'shnilariga ham ulashamiz.

Hakimjon akadek bog'bonlar ko'paysin, — deydi “Diyor” MFY raisi Sayyora Omonqulova. — U kishidan mahallamiz ahli juda minnatdor. Yangi qurilgan mahalla idorasi atrofini gulzorga aylantirishda ham Hakimjon akaning hissasi katta.

Bir kuni Hakimjon aka: — Qishloqdan yer olib, ko'chib ketmoqchiman, — deb qoldi to'satdan. Bu gapni eshitib, etim jimirib ketdi. — Bog' nima bo'ladi? Uni kimga topshirib ketasiz? — so'radim undan. — Yonimizdagi maktabga yoki bog'chaga topshirib ketaman, — dedi Hakimjon aka. Men bog' taqdirini o'ylab, o'zidan boshqa



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



kishi eplolmasligini, qarolmasligini aytib, ba'zan o'zi kelib, boqqa qarab turishini maslahat berganday bo'ldim. Keyinchalik eshitdimki, bog'bonning ko'chishi bir-ikki yilga cho'zilibdi. Shu bois, hozircha ko'nglimiz xotirjam, chunki bog'ning o'z egasi bor.

— Ekaman, qarayman desang, ko'nglingda yaratuvchanlik ishq'i bo'lsa, hovlingda yoki yashab turgan ko'p qavatli uyning atrofiga ham bo'sh maydon topiladi. Gap ishtiyogda, shijoatda, — deydi biz bilan suhbatda mahalla nuroniyari.

Albatta, qayerda izlanish va tashabbuskorlik bo'lsa, o'sha joyda ish samaradorligi ortib boraveradi. Bunday tashabbuskorlarni poytaxtimiz ko'plab hududlarida uchratishimiz mumkin. Shayxontohur tumanidagi Katta Jarariq mahallasida to'qqiz qavatli uy atrofiga yaratilgan yashil bog' yon-atrofga go'zallik va salqinlik bag'ishlab turadi. Bundan 20 yillar muqaddam tosh va g'isht siniqlari, temirbeton parchalariga to'lib-toshgan tashlandiq 30 sotixdan ziyod joyni shu mahallaning fidoyi fuqarolari Haydarali Mamatov va Hasan Yo'ldoshev qo'ni-qo'shnilar ko'magida obod qilib, ko'plab mevali va manzarali daraxt ko'chatlari o'tqazgan edi. Mana necha yildirki, aholi ushbu bog' daraxtlarining mevasi va soyasidan bahramand bo'lib kelmoqda. Muhimi, bu maskan shu davrda qanchadan qancha chang va g'uborni yutib, atrof-muhitga toza havo — kislord yetkazib berdi.

So'nggi yillarda yurtimizning barcha hududlarida, xususan, poytaxtimiz tumanlaridagi mahallalarda yo'l chetlarida o'ziga xos ko'rinish va dizaynga ega, atrofga ko'rk bag'ishlab turuvchi uzumzor ishkamlarini barpo etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. “O'zbekiston — 2030” strategiyasida Toshkent shahrida yashil maydonlar hududini 5 barobar ko'paytirib, 5 ming gektarga yetkazish ko'zda tutilgan. Bu vazifalar ijrosi, albatta, ekofaollar tashabbusi va harakatlari bilan amalga oshadi.

Tabiat jonkuyarlari tashabbuslari hamma joyda ham birdek qadrlir. Qashqadaryo viloyatining Kitob tumanidagi Charmgar mahallasida yashovchi mehnat faxriylari Samad Rahmonov va uning turmush o'rtog'i Misqoloy onani doimo kichik bog'da ko'rasiz. Bir qarasangiz — qo'lida ketmon, bir qarasangiz — gulqaychi, daraxtlar va gullar parvarishi bilan

Bog'ning ikki sotixli maydonini “mahalla choyxonasi quramiz” degan vaj bilan fuqarolar yig'ini olgan edi. Keyin ma'lum bo'lishicha, mahalla bo'yoyi “dom” qurish uchun tadbirkorga berib yuboribdi. Buni bilib qolgan fuqarolar tuman va shahar hokimliklariga, shuningdek, boshqa mutasaddi idoralarga qayta-qayta murojaat qilib, yerni bir amallab qaytarib oldi. Uyni kunlarda ekofaollar bu joyda aholi uchun uzumzor bog' yaratish harakatini qilmoqda. Qassobning qayg'usi go'sht deganlaridek, kim nima maqsadda yuribdi, kim qanday harakatda, anglab olavering.

So'nggi yillarda yurtimizning barcha hududlarida, xususan, poytaxtimiz tumanlaridagi mahallalarda yo'l chetlarida o'ziga xos ko'rinish va dizaynga ega, atrofga ko'rk bag'ishlab turuvchi uzumzor ishkamlarini barpo etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. “O'zbekiston — 2030” strategiyasida Toshkent shahrida yashil maydonlar hududini 5 barobar ko'paytirib, 5 ming gektarga yetkazish ko'zda tutilgan. Bu vazifalar ijrosi, albatta, ekofaollar tashabbusi va harakatlari bilan amalga oshadi.

Tabiat jonkuyarlari tashabbuslari hamma joyda ham birdek qadrlir. Qashqadaryo viloyatining Kitob tumanidagi Charmgar mahallasida yashovchi mehnat faxriylari Samad Rahmonov va uning turmush o'rtog'i Misqoloy onani doimo kichik bog'da ko'rasiz. Bir qarasangiz — qo'lida ketmon, bir qarasangiz — gulqaychi, daraxtlar va gullar parvarishi bilan

band bo'ladi. Ko'chasidagi mo'jazzina hovlisida ham, ko'cha tomondagi maydonchada ham hali u narsa yetishtiriladi, hali bu. O'zidagi nihollardan mahalladoshlariga ulashadi, xolis xizmat sifatida erimasdan borib, ekib ham beradi.

Tumanning Xalqlar do'stligi mahallasida yashovchi Abdurahmon Qurbonov xonadoniga borsangiz, qishin-yozin guldonidagi turli gullarni ko'rib zavqlanasiz, o'zingizni xuddi gulzorda yurgandek his etasiz. Xonadon bekasi Dilorom

Ayrim restoran va oshxonalarda ovqat tayyorlanadigan o'choxonalar to'g'ridan to'g'ri suv bo'yalarida, dov-daraxtlarga yaqin joylashgani bois, yillar davomida atrofimizdagi tabiatga zarar yetkazib kelimoqda. Tadbirkor faqat o'z foydasini ko'zlamasdan, tabiatni asrashi lozimligini ham o'ylab, unga ziyon yetkazmaslik choralarini topib ish tutsa, ayni muddao bo'ladi.

Keyingi vaqtlarda daraxt, gul ko'chatlarini



Sobir MAMANOV, jurnalist

## “Dolzarb bir oylik” safarbarligi

## YERI BOR ODAM KAMBAG'AL BO'LMAS

## Boshlanishi 1-betda

Jizzaxdagi yangi qurilishlar tufayli bugun shahar markazidagi qadimiy mahallalardan biri — Zargarlikda tarixiy ko'rinishini aks ettiruvchi inshootlar qariyb qolmagan. Mahalla ko'p qavatli uylardan iborat. Xususan, 7 ta 9 qavatli, 5 ta 5 qavatli, 42 ta 4 qavatli uydagi 2300 dan ziyod xonadonda 12 mingdan ko'proq odam yashaydi.

Mahallada turar joy binolari va ularga tutash hududlarda obodonlashtirish bo'yicha

yirik loyiha amalga oshirilmoqda. Ayni paytda mahalla hududidagi jami 223 xonadondan iborat 4 ta to'rt qavatli uyni mukammal ta'mirlash ishlari yakunlandi. Loyihani amalga oshirish davomida uylarning romi, irrigatsiya tarmoqlari, yo'lak to'sinlari yangilandi, tom qismi, hududga yondosh yo'laklar, infratuzilma inshootlari, bolalar va sport maydonchalarida ham qurilish-ta'mirlash ishlari bajarildi.

Tadbir ishtirokchilari mahalladagi obodonlashtirish, qurilish ishlari, yangi tashkil etilayotgan gastronomik ko'cha bilan tanishdi.

Shu yerda shaharning boshqa mahallalarida bajarilayotgan qurilishlar, aholiga yaratilayotgan quylayliklar, tajribalar haqida ma'lumot berilib, yangi loyihalar taqdimoti o'tkazildi.

Shundan so'ng ishtirokchilar seminar kun tartibidagi asosiy masala — tomorqadan foydalanishdagi ishlar bilan tanishish uchun Zafarobod tumaniga bordi.

Tomorqadan samarali foydalanishda xonadon egasiga bog'liq bo'lgan va bo'lmagan muammolar bor, albatta. Shunday muhim omillardan biri, shubhasiz, suv ta'minoti. Suv yetarli ta'minlangan hududlarda yerdan foydalanmay qo'rgan odam kam uchraydi.

Seminar Zafarobod tumanida davom ettirishdan ko'zlangan asosiy maqsad eng yaxshi mahallalarni namuna sifatida ko'rsatish emas edi. Viloyatning cho'l hududidagi tumanlar orasida sug'orish tizimi eng og'ir bo'lgan Zafarobodda ko'p yillar davomida aholi suv taqchilligidan aziyat chekib kelayotgandi. Keyingi yillarda irrigatsiya tizimidagi tozalash, ta'mirlash ishlari tufayli ahvol birmuncha o'zgargan bo'lsa-da, aholi turmush darajasini yaxshilash bo'yicha ishlar bisyor.

Jumladan, seminar o'tkazilgan Birlik mahallasi ham tumanidagi og'ir mahallalar ro'yxatida turadi. Aholi tomorqasiga suv yetishmaydi. Hududda irrigatsiya tizimlari tiklangani mahalla ahliga suv bilan birga katta quvonch ham olib keldi. Ko'rgazmali seminar ishtirokchilari ushbu loyiha ishga tushirilishi — mahalla arig'iga suv ochilishiga bag'ishlangan tantanali marosimda qatnashdi.



Botir Qudratov olgan suratlari.

— Yerimiz unumdor, odamlarimiz mehnatkash, — deydi mehnat faxriysi Yaxshiboy To'ychiev. — Biroq keyingi yillarda suv taqchilligi tufayli 800 dan ziyod xonadon tomorqasidan foydalana olmayotgan edi. Aholi farovonligini oshirishga qaratilgan ushbu loyiha beqiyos ish bo'ldi. “Suv — hayot manbai” deb bejiz aytilmagan. Bu aholi farovonligi demakdir. Endi mahallamizda kambag'allikni tugatish uchun mustahkam asos yaratildi.

Mahalla ahli suv kelishini katta umid bilan kutganini dehqonchilikka barvaqt kirishib

ketganida ham o'rish mumkin. Tomorqachilikni qo'llab-quvvatlashda mahalla fuqarolar yig'ini tomonidan kambag'al oilalar alohida e'tiborga olinmoqda. Hududda 100 nafar yoshga 50 gektar yer tomorqa uchun ajratib berildi.

Seminar qatnashchilari mahalla aholisiga ijaraga berilgan yerda “Bir kontur — bir mahsulot” tamoyili asosida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, kambag'allikni qisqartirishdagi ishlar bilan tanishdi. Muloqotda hududdagi “Zafarobod-Birlik tomorqa xizmati” mas'uliyati cheklangan

jamiyatining qishloq xo'jaligi mahsuloti yetishtirish, saqlash va realizatsiya qilish rejasini, tumanning boshqa mahallalaridagi ishlar haqida so'z yuritildi.

Tadbir doirasida tumanidagi Cho'liguliston mahallasida “Obod xonadon — obod ko'cha — obod mahalla” mezonlarini joriy etish bo'yicha qilingan ishlar taqdimoti hamda tomorqaga xizmat ko'rsatish, resurslar ta'minoti, mini texnikalar va agregatlar ko'rgazmasi namoyishi etildi. Shu yerning o'zida viloyatdagi 24 ta og'ir mahallaga lizing asosida mini traktor va boshqa qishloq xo'jaligi texnikalari taqdim etildi.

Seminar davomida Cho'liguliston mahallasining ixtisoslashuvi, kartoshka, pomidor, ko'kat yetishtirish mahsulotlarini ichki bozorga yetkazib berish tajribasi o'rganildi. Mahalladagi “Yoshlar bog'i”ga “Yashil makon” loyihasi doirasida daraxt ko'chatlari ekildi.

Ayni kunlarda tomorqachilar qilayotgan ishlar mo'ljaldagi hosil yetishtirilishidan darak berib turibdi. Bunga kafolat — odamlarning xatti-harakati. Bu harakatda ularning yerga, hayotga, jamiyatga munosabati, qarashlari o'zgarгани ko'rinib turibdi.

Yeri bor odam kambag'al bo'lmaydi. Odamlar bu haqiqatni tobora teran anglab yetmoqda. Shuning uchun viloyatning barcha tumanlarida tomorqada uch-to'rt marta hosil yetishtirayotgan, zamonaviy issiqxonalar qurib, yaxshigina daromad olayotganlar ko'payib bormoqda.

Sohadagi yaxshi ishlarni, ilg'or tajribalarni targ'ib qilish, ommalashtirish, shubhasiz, tomorqachilikni rivojlantirishga, bozorlarimizning serob, dasturxonlarimizning to'kin bo'lishiga xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazaridan, ushbu ko'rgazmali seminar ham amaliy ahamiyatga ega tadbirlardan biri bo'ldi.

Farhod NE'MATOV, “Yangi O'zbekiston” muxbiri

## Suhbatdosh

## YANGI DARSLIKLAR —

## TA'LIM MAQSADLARIGA ERISHISHDA ASOSIY VOSITA

Bugun maktablarda dars berishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, multimedia vositalari keng qo'llanilayotgani, ta'lim-tarbiya jarayoni innovatsion yondashuvlar asosida olib borilayotgani ta'lim sohasidagi istiqbolli odimlardan darak beradi. Bilim va ma'lumotni shunchaki uzatish, takrorlash bilan cheklanib qolmaslik, yangi kashfiyotlarni yaratishga qodir, tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega salohiyatli bolalarni tarbiyalash soha oldidagi muhim vazifa sanaladi.

“O'zbekiston — 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturida umumiy o'rta ta'lim muassasalari uchun 65 nomdagi yangi darsliklar, mashq daftarlari, o'qituvchi metodika kitoblarini yaratish va amaliyotga joriy etish ko'zda tutilgan. Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi direktori vazifasini vaqtincha bajaruvchi Yuliy RYSUKOVA bilan suhbatimiz shu haqda bo'ldi.

— Davlat dasturida umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quvchilarda kommunikativ ko'nikmalar, tanqidiy va kreativ fikrlash, hamkorlikda ishlash, tadqiqotchilik kabi jihatlarni shakllantirish bo'yicha vazifalar belgilangan. Bu jarayonda darsliklarning ta'lim sifatini oshirishdagi roli qanday?



— Maktab tizimida darslik ta'limning asosiy mazmun-mohiyatini yoritib beradigan va ta'lim maqsadlariga erishishdagi muhim vositalardan biridir. U o'quv mazmunining tuzilishini belgilaydi, bilimlarni tizimlashtirishga yordam beradi, ham o'quvchilarni, ham o'qituvchilarga tegishli yo'nalishlarni ko'rsatadi. Yaxshi darslik ma'lumot qiziqish bilan birga o'quv jarayoni mantiqiy, qiziqarli va tushunarli bo'lishiga ham yordam beradi.

Hozirgi kunda zamonaviy texnologiyalar hayotimizning barcha jabhalariga kirib keldi va ta'lim jarayonida ham muhim o'rindan birini egallamoqda. Ushbu texnologiyalar aniq dasturlar, sinovdan o'tgan metodikalarni va yaxlit bilimlar majmuasini raqamli resurslar va vositalar orqali o'rganish imkonini yaratmoqda. Biroq ushbu resurs va vositalar darsliklarni o'z o'rnini bosuvchi emas, ularni to'ldiruvchi va interfaollikni oshiruvchi mexanizm sifatida ta'lim mazmunini boyitishga xizmat qiladi.

Sifatli yaratilgan darslik mazmuni to'g'ridan to'g'ri o'quvchilarning o'zlashtirish darajasiga ta'sir qiladi. Agar ma'lumotlar tushunarli,

misollar va ko'rgazmali illyustratsiyalar bilan bayon qilingan bo'lsa, bilimlarni real hayotda qo'llashga o'rgatuvchi amaliy topshiriqlarni o'z ichiga olsa, ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi va ta'lim maqsadlariga erishishda muhim vosita bo'ladi.

Shu sababli biz zamonaviy metodika va ilg'or xalqaro tajribalarni inobatga olgan holda sifatli darsliklar yaratishga, ularni o'quvchilar va o'qituvchilar uchun yuqori darajada foydali qilishga intilyapmiz.

Jadal rivojlanayotgan bugungi dunyoda o'quvchilarda kommunikativlik, tanqidiy va kreativ fikrlash, hamkorlikda ishlash, tadqiqotchilik kabi ko'nikmalar shakllantirish dolzarb va muhim. Shu bois, yangi darsliklarni natijaga yo'naltirilgan yondashuv asosida yaratishga asosiy vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Yangi darsliklar faqat nazariy bilim berish bilan cheklanib qolmay, o'rganilgan bilimlarni real hayotda qo'llash, jamiyatda muvaffaqiyatli bo'lishga intilish ko'nikmalarini shakllantiradi. Shuningdek, milliy xususiyatlarga moslashtirilgan xalqaro o'qitish metodikalarni faol qo'llash orqali tanqidiy fikrlash, tahlil qilish va mustaqil ishlash ko'nikmalarini ham rivojlantiradi.

1-4-sinlar uchun 4K modelga asoslangan holda yaratilgan yangi darsliklar o'quvchilarda kollaboratsiya, kommunikatsiya, kreativlik va tanqidiy fikrlash rivojlanishiga yo'naltirilgan. Bu statistik ma'lumotlarni tahlil qilish va sintezlash, shuningdek, ma'lumotning to'g'ri yoki noto'g'riligini aniqlash kabi boshqa qobiliyatlarni rivojlantiradi.

Shuningdek, darsliklarda ma'lumotlarni vizuallashtirish, amaliy topshiriqlar va loyihaviy faoliyatga alohida urg'u berilgan. Qator fanlar bo'yicha darsliklarda raqamli elementlar, QR-kodlar va interfaol resurslarga havolalar kiritilgan bo'lib, bu ta'lim jarayoni yanada moslashuvchan va zamonaviy bo'lishini ta'minlaydi.

— Yaratilayotgan yangi darsliklarning alohida ajralib turadigan jihati nimada? Qaysi xorijiy tajriba va modelga asoslanmoqda?



— Sifatli ta'lim nafaqat inson kapitalini shakllantiradi, balki barqaror iqtisodiy o'sish, ijtimoiy barqarorlik va texnologik taraqqiyot uchun zamin yaratadi. Shu bois, bugungi ta'lim shunchaki nazariy bilim berish emas, balki olingan bilimlarni real hayotda samarali qo'llash va zamonaviy fikrlashga o'rgatishi zarur.

Yangi darsliklarda aynan shu jihata urg'u berilgan: misollar, masalalar, kundalik hayotdan olingan keyslar bolalarga o'rganilayotgan ma'lumotlarning amaliy ahamiyatini ko'rishga yordam beradi. Bu darsliklarning katta afzalligi xalqaro standartlarga muvofiqdirligi.

Ularining aksariyat qismi mahalliy mutaxassislar tomonidan yaratilgan, shu bilan birga, ilg'or xorijiy davlatlar tajribasi inobatga olingan. Ularining ta'lim tizimi, ayniqsa, xalqaro olimpiadalarda va xalqaro baholash dasturlari, jumladan, PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS tadqiqotlarida yuqori natijalarga erishganiga e'tibor qaratilgan.

Xususan, mazkur jarayonda tabiiy va aniq fanlar bo'yicha sinalgan, ushbu sohalar bo'yicha yuqori natijaga erishgan Singapur tajribasidan foydalanishga qaror qilindi. Bu mamlakat xalqaro ta'lim sifatini baholash reytinglarida yetakchi o'rinlarni egallab kelmoqda va uning metodikalari o'z samaradorligini isbotlagani soha mutaxassislariga yaxshi ma'lum. Shu bois, matematika, tabiiy fanlar, kimyo, fizika, biologiya fanlari bo'yicha Singapurda ishlab chiqilgan o'quv dasturlari mukammal o'rganilib, tanlab olindi.

Shuningdek, darsliklarni yaratish jarayonida yangi yondashuvlarni joriy etish asosida an'anaviy o'qitish usullarimiz bilan bog'liqlik va milliy o'ziga xoslikni saqlab qolishga alohida urg'u berilgan.

— Darsliklar zamonaviy dizayn tendensiyalariga muvofiq ishlab chiqarilayotmi? O'ziga xosliklari nimadan iborat?

— Uzun, bir xil uslubda yozilgan matnlarni o'qish maktab yoshidagi o'quvchilar uchun muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Ma'lumot rasmlar, chizmalar, diagrammalar bilan boyitilgan bo'lsa, uni tushunish va eslab qolish ancha osonlashadi. Yangi darsliklar yaratilishida nafaqat mazmun, balki bolalarning ma'lumotni qanday qabul qilishi ham inobatga olindi.

Shu sababli yangi darsliklarda vizual elementlarni ko'proq qo'llash, psixologlar tavsiyalari asosida ranglarni to'g'ri tanlashga alohida e'tibor qaratildi. Darsliklardagi illyustratsiyalar diqqatni jalb qilishi bilan birga ma'lumot tushunarliroq bo'lishi va osonroq tizimlashtirishga yordam beradi. Bu o'qitish jarayoni yanada qulay va qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi hamda bolalarning mavzuni osonroq o'zlashtirishiga ko'maklashadi.

Zamonaviy bolalar interfaol va multimedia vositalaridan foydalanishga o'rganib qolgan. Ularning bu qiziqishlarini ta'lim maqsadlariga erishishda inobatga olish zarur deb hisoblaymiz. Shu bois, darsliklarda innovatsion texnologiyalar va vositalar ham qo'llanganini ko'rishimiz mumkin. Masalan, qarang QR-kodlar joylashtirilgan. Ular yordamida o'quvchilar mavzuga doir video va audiomateriallarni ko'rish, eshitishi mumkin. Ushbu texnologiyalar o'qitish jarayonini yanada dinamik va interfaol qilish maqsadida qo'llanilgan.

Darsliklarni yaratishda ularning og'irligi e'tibordan chetda qolmagan. O'quvchilarning yoshi va fiziologik holatini inobatga olgan holda darsliklarning optimal qalinlik va og'irlik uyg'unligi ta'minlangan. Bu, ayniqsa, kichik yoshdagi o'quvchilarga darsliklarni ko'tarish va ularidan foydalanishni yengillashtiradi.

— Yangi darsliklardan o'rin olgan yangi bilim va ko'nikmalarni o'quv jarayoniga tatbiq etish o'qituvchidan katta mahorat talab etadi. Pedagoglarning bilim va malakasini oshirish borasidagi ishlar xususida to'xtalangsiz.

— Ta'limdagi har qanday yangilik alohida tushuntirish ishlari olib borishni talab qiladi. Shu sababli biz o'qituvchilarni metodik qo'llab-quvvatlash va o'zgarishlarga moslashishga yordam berish masalasiga katta e'tibor qaratamiz. Bu borada Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi bilan hamkorlikda muntazam ravishda o'quv-seminarlar o'tkazib, yangi darsliklar, dasturlar, metodikalarni bo'yicha yangiliklar va samarali yondashuvlar haqida batafsil ma'lumot berib bormoqda.

Masalan, pedagog kadrlar kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirish maqsadida o'tgan yildan markaz tashabbusi bilan “metodik marafonlar” tashkil etila boshlandi. Bugungi kunda qadar ushbu tadbirlar doirasida 200 mutaxassisdan iborat mentorlar guruhi shakllantirildi va 300 dan ortiq mahorat darsi o'tkazildi. Unda 60 mingdan ziyod pedagog ishtirok etdi. Shuningdek, o'tgan yili texnologiya, tarbiya, tarix, tabiiy fanlar, tasviriy san'at, musiqa madaniyat fanlari bo'yicha o'qituvchilar uchun malaka oshirish kurslari o'quv dasturlari ishlab chiqildi va joriy etildi.

Bundan tashqari, o'tgan yildan ilki bor 1-sinfdan boshlab “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini o'qitish yo'lga qo'yildi. Joriy yilda ushbu fan 2-sinfda ham o'qitilmoqda. Mazkur fan o'qituvchilari malakasini oshirish maqsadida Abdulla Avloniy nomidagi Milliy pedagogika mahorat

instituti bilan hamkorlikda 18 soatlik o'quv kursi tashkil etilib, informatika fani bo'yicha 45 mingga yaqin boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining malakasi oshirildi.

Tabiiy resurslarni tejash va ularidan oqilona foydalanish, ekologik barqarorlikni ta'minlash bugungi kunda dolzarb masalalardan bo'lib qolmoqda. O'qituvchilarda ekologik savodxonlikni rivojlantirish maqsadida malaka oshirish kursi uchun o'quv reja va dastur ishlab chiqildi. Shuningdek, zarur metodik materiallar bilan ta'minlash maqsadida 7-11-sinf o'quvchilari uchun kimyo fanidan laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish bo'yicha o'zbek va rus tillarida metodik qo'llanma hamda boshqa fanlar bo'yicha ham metodik resurslar tayyorlanmoqda.

O'qituvchilarni metodik qo'llab-quvvatlash maqsadida biz zamonaviy texnologiyalardan faol foydalanib, ma'lumotlarni osonroq yetkazib berishga harakat qilmoqdamiz. Markazning rasmiy veb-sayti, ijtimoiy tarmoqlardagi kanalalari orqali foydali materiallar, metodik tavsiyalar va eng ko'p beriladigan savollarga javoblar joylashtirib kelinmoqda.

Muhim yangiliklardan biri sifatida markaz tomonidan ishlab chiqilib, test rejimida ishga tushirilgan “Yagona ta'lim resurslari va xizmatlari” portalini aytishimiz mumkin. Mazkur portaldan muhim metodik resurslar, zamonaviy pedagogik dasturiy vositalar va platformalardan foydalanish bo'yicha videoqo'llanmalar, maktab darsliklari va laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha multimedia va elektron resurslar berilgan. Shuningdek, ta'limda baholash nazariyasi va amaliyoti bo'yicha videoresurslar joylashtirilgan. Hozir portal imkoniyatlarini kengaytirish, interfaol ta'lim resurslari bilan to'ldirish ishlari amalga oshirilmoqda. Portalga istalgan vaqtda istalgan joydan va qurilmadan kirib, foydalanish imkoniyati yaratilgan.

— Xalqaro miqyosda ham ta'lim va tarbiya almashuv jarayoni izchil rivojlanib borayotgan davrda yangi darsliklar va mashq daftarlari asosida qanday istiqbolli qadamlarni ko'rishimiz mumkin?

— Ta'lim jarayoniga yangi darsliklar va mashq daftarlarini joriy etish dunyoning eng yaxshi tajribalarini o'rganish va mahalliyatlashirish imkonini kengaytiradi. Ular nafaqat ta'lim sifati va o'qitish darajasini oshirishga, balki milliy ta'lim tizimining xalqaro maydonga integratsiyasini kuchaytirish va xalqaro baholash tadqiqotlaridagi natijalarni yaxshilashga ham yordam beradi. Buning oddiy misoli sifatida maktab bitiruvchilarining xorijiy universitetlarga o'qishga kirish imkoniyatlarini oshirish, fanlar bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichlari xalqaro miqyosda tan olinishini keltirishimiz mumkin.

Shu bilan birga, istiqbolli qadamlardan biri maktablar uchun xalqaro ta'lim tashabbuslarida, xorijiy muassasalar bilan hamkorlikda loyihalarda ishtirok etish imkoniyati yaratiladi. Bundan tashqari, yangilangan o'quv materiallari mahalliy texnologiyalarni integratsiya qilish va amaliyotga yo'naltirilgan yondashuvni joriy etish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Yangi darsliklar ta'limni yangi bosqichga olib chiqishga ko'maklashadi. Ular xalqaro standartlarga mos keladigan raqobatbardosh, bilimlari va XXI asr ko'nikmalariga ega yoshlarni shakllantirishga zamin yaratadi. Bu yoshlarimiz nafaqat milliy ta'lim makonida, balki xalqaro maydonda ham muvaffaqiyat qozonishi uchun muhim qadamdir.

“Yangi O'zbekiston” muxbiri  
Risalat MADIYEVA  
suhbatlashdi.

## Tashabbus qanot yozsa...

## YOSH ARHITEKTOR YIGIT

## Mo'ynoqda gumbaz ostida “AQLLI SHAHAR” qurish loyihasini taklif etdi

Asliddin bilan innovatsion g'oyasi haqida gaplashayotib ko'pchilikka yaxshi tanish bo'lgan “Gumbaz ostidagilar” degan fantastik film xayolimga keldi. So'ng mashhur ruboidagi “Feruza gumbazli osmon ostida” degan satrni xotirladim. Yosh me'morning o'zi esa yaqin o'tmishda kuz va qishda qishloqlarimizdagi xonadonlar markaziga uzun yog'och ustun tiklab, hashar yo'li bilan o'tov shaklida quriladigan chodir-to'yxonalarni eslatdi...

Ha, Asliddinning g'oyasi kimlardir xomxayol, cho'pchak yoxud fantastika bo'lib tuyulishi mumkin. Biroq uning o'z qarashlarini ilmiy jihatdan asoslashga astoydil intilayotganini ko'rib, beixtiyor kechagina hammamizga etak bo'lib tuyulgan, bugun realikka yo'g'rilayotgan o'nlab afsonalar haqida o'ylab qoldim.

— Inson doim katta orzu-maqсадlar bilan yashashi kerak, — deydi Asliddin bama'yilxotir. — Orzular esa amalga oshish xususiyatiga ega. Navoiy bobomiz dostonlarida robot, televizor, internet, eskalator, hatto “po'lat qush” — samolyot ham tasvirlangan ekan. O'sma bog'lar bundan necha asrlar avval qadimiy Bobilda yaratilgan.

Ispan elchisi Klavixo Sohibqiron bobomizning Keshdagi saroylarini hayrat bilan qanday tasvirlagan haqida o'qigandirisiz? Bu koshonalar tarhini Angliya yo Fransiyadan kelgan me'morlar emas, o'zimizning bobolarimiz chizgan.

— Lekin butun shaharni gumbaz bilan qoplashni tasavvurga sig'dirish qiyin-da, — deyman yigitim chizmalariga boqib. — Ozmuncha mablag' ketadimi?!

— Sahroning o'rtasida dunyo sayyohlari intiladigan Dubay singari ajoyib shahar qurilgan-ku, — deydi suhbatdoshim. — Aytaylik, kelajakda Mo'ynoqda shunday ekoshahar qurilsa, Orolbo'yiga ham sayyohlar oqib keladi. Birgina turizmni rivojlantirish evaziga sarflangan xarajatni bir necha yilda qoplash mumkin.

Xayolot olamiga erk berganicha ajabovur fikrlarini dadil himoya qilayotgan yosh me'mor Asliddin Norqobilov Qashqadaryoning Qarshi tumanidan. Oddiy qishloq yigiti. Bu yil 24 bahorni qarshilayapti. Universitetni tamomlab, yaqinda Qarshi shahridagi qurilish firmalaridan darslar arxitektor sifatida ish boshladi. Xotirlashicha, bolaligidan tasviriy va amaliy san'atga mehr qo'rgan. Otasi — jurnalist, onasi — o'qituvchi emamsi, undagi iqtidorni vaqtida payqab, qo'llab-quvvatladi. Erinmassa uni tasviriy san'at ko'rgazmalariga, muzey va teatrga, tarixiy binolar sayohatiga, turli tanlovlarga yetaklab bordi.

— Maktabni bitirib, chizmachilik kurslariga qatnadm, — deydi Asliddin. — Ustozim har bir shogirdi bilan individual ishlardi. So'ng Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti (hozir universitet)ning arxitektura yo'nalishida tahsil oldim. Qo'shimcha “AutoCad”, “Revit”, “3D Max” singari zamonaviy arxitektura dasturlari kurslarida o'qidim. Samarqand viloyati hokimligi mas'ullari tez-tez o'lyog'ohimizga kelib, talabalarni loyihalari taqdimoti bilan



tanishardi. Esimda, bir gal yuqori kursdagi talaba ishlab chiqqan bokat loyihasi qabul qilingan edi. O'shanda kasbimga ishtiyoqim yanada kuchaydi. Biz, yoshlarga ishonib, katta ishlar topshirilishini ko'rib, o'z ustimda ko'proq ishlashim, harakat qilishim zarurligini anglab yetdim.

## Hammasi issiqxona va sardobadan boshlangan

Asliddin 2023-yili ikki kursdoshi bilan birga OTM talabalari uchun e'lon qilingan “Rektor tanlovi”da ishtirok etdi. O'shanda ularga omad kulib boqdi. Tanlovning “Aqlli shahar” va innovatsion g'oyalari konsepsiyasi” yo'nalishida

g'olib bo'lib, Turkiya oliy ta'lim muassasalarida bir oy tajriba almashish uchun yo'llanmani to'g'la kiritishdi.

— Qoraqalpog'istonning Mo'ynoq tumani uchun gumbaz ostida ekologik toza, maqaddi iqlimli “aqlli shahar” loyihasini tanlovga taqdim qilgandik, — deydi suhbatdoshim bu xususda eslangan.

— Bu g'oya xayolingizga qayerdan kelib qoldi o'zi? — deb so'rayman undan.

— Bolaligimda tomorqamizda qurilgan issiqxonaning shaffof gumbaz ostida pomidor, bodring yetishtirganmiz. Qolaversa, Qarshidagi Odina masjidida ma'lum ko'rganim — sardoba inshooti ham meni mana shu g'oyaga ilhomlantirdi. Shu bois, cho'l hududida qurilishi tavsiya etilayotgan shahrimizni “Sardoba city” deb

atadik. O'yilgan g'oyam asosidagi loyihani ishlab chiqishga ikki kursdoshimni ham taklif qildim.

## Mo'ynoqda, hatto Marsda ham qurish mumkin

Yosh me'morning ta'kidlashicha, shaharsozlikdagi “Goard city — bog' nazariyasi”ga asoslangan loyihadagi yorug'lik o'tkazuvchan maxsus materialdan quriladigan gumbazni markazdagi 750 metr balandlikdagi ulkan ustun (aslida, u ham ustun shaklidagi ko'p qavatli bino) ko'tarib turadi. Unda shahar ma'muriy markazi, mehmonxonalar, osma bog'li restoranlar joylashtiriladi. Ustun atrofida bir kilometr radiusda halqa shaklida ta'lim, tibbiyot, madaniyot muassasalari, turar joylar va boshqa inshootlar quriladi.

— Bizning loyiha yashillikning yo'qolishiga emas, aksincha, ko'payishiga sabab bo'ladi, — deydi Asliddin. — Halqalar orasida yashil maydonlar, bog'lar, ko'llar bunyod etiladi. Gumbaz atrofiga u bilan maxsus tunnellar orqali tutashirilgan bir necha kichik hajmli gumbazlar ostida shaharni energiya bilan ta'minlash uchun quyosh va shamol elektr stansiyasi, qozonxona, sanoat korxonalarini tuginlari, qo'riqxonalar, qishloq xo'jaligi tarmoqlari joylashtiriladi.

Shahar bo'yab jamoat transporti sifatida faqat osma yo'lga yuradigan elektr poyezd va elektromobilardan foydalaniladi. Aytganicha, sardobani ham unutmadi. Ulkan sardoba shaklidagi gumbaz qobig'orlga tushadigan qor va yomg'ir suvini quvvur orqali maxsus havzalarda

yig'ib, tozalash inshootlaridan o'tkazib, iste'molga yetkazib berish ko'zda tutilgan.

Gumbaz asalari uyasi shaklidagi olti burchakli, maxsus konstruksiyali shisha membrana kataklar to'plamidan iborat bo'ladi. Har bir oltiburchak katak maxsus texnologiya orqali ochilib yopiladi. Issiq-sovuqqa chidamli shisha membrana qobiq ultrabinafsha numi o'tkazmaydi, sun'iy ozon qatlamini hosil qiladi. Gumbaz orqali havo ham filtrlab o'tkaziladi. Qolaversa, gumbazda maxsus seysmik va ob-havoni kuzatish hamda mudofaa maqsadlaridagi qo'shimcha uskunalar ham o'rnatish mumkin.

Yuqorida tomorqamizdagi issiqxonani bejiz eslamadm. Shahar ichidagi ob-havo, bosim, namlik, harorat ham xuddi “pamlik”dagiday boshqariladi. Boshqacha aytganda, gumbaz ostida yilning istalgan fasli iqlimini hosil qilish mumkin. Loyiha orqali chang-to'zonli cho'l hududida o'rtacha 20 minggaqadam uchun qulay, toza havo, toza suvga ega smart shahar qurish imkonlari bor.

Endi sal ilmiy tilda tushuntirsam. Bir qator xususiyatlari shaharning “aqlli”ligini ta'minlaydi. Texnologiyaga asoslangan infratuzilma, ekologik yechimlar, samarali va yuqori funksional jamoat transporti, xavfsiz va ilg'or shahar rejalar va hokozalar shular jumlasidan. Xomxayol deb o'ylasangiz ham aytaman: bu loyihani kelgusida hatto Marsda ham amalga oshirish mumkin...

Asliddin aynan shu loyihasi sabab o'tgan yil Istanbuldagi Yildiz texnika universitetida hamkor do'stlari bilan bir oy mahoratini oshirib, maxsus sertifikat bilan qaytdi. Ta'kidlashicha, bu shaharda dunyoga mashhur bir qancha tarixiy binoni tomshoq qilib, qurilish maydonlarida amaliyotda bo'lgan. Osiyo va Yevropa, Sharq va G'arb me'morchiligi uyg'unligini o'rganishga harakat qilgan.

Yosh me'mor kelgusida mana shu uyg'unlik va zamonaviy yechimlar asosida “Sardoba city” loyihasini yanada takomillashtirish, bu yo'nalishda ilmiy faoliyat bilan shug'ullanish niyatida. Buning uchun, avvalo, xorijiy tilni o'rgandi. Magistratura tahsilini Turkiyada davom ettirish harakatida. Katta maqsadlar sari intilayotgan Asliddinning mana shu orzulariga erishishiga tilakdoshmiz.

Akbar RAHMONOV,  
“Yangi O'zbekiston” muxbiri



# "ADABIYOT TIRIKCHILIK EMAS, TIRIKLIK MANBAYI"

## "O'tirik"

Gazetamizning o'tgan yil yanvar oyidagi dastlabki sonlaridan birida so'nggi sahifaning uchdan bir qismiga jo bo'lgan mo'jazzgina "O'tirik" hikoyasi chop etildi. Sinchkov mushariylarimiz yaxshi biladi, 5 yillik faoliyati davomida "Yangi O'zbekiston" nashri sahifalarida sanoqli, nari bors 3 yoki 4 ta hikoya e'lon qilingan. Biroq "O'tirik" mavzusi, syujeti, qahramonlari, tili, ifoda uslubi bilan tahriyati xodimlarining ham, gazetxonlarning ham xotirasidan mustahkam o'rin oldi. Sababi...



"Oltin qalam" xalqaro tanlovi sovrindori bo'ldi. 2012-yilda Luqmon Bo'rixon "Tun q'ridagi shu'la" qissa va hikoyalar to'plamini, "Buyuk o'zbek yo'li" badiiy publitsistik maqolalar jamlanmasini o'quvchilar hukmiga havola etdi. Keyinchalik "Olov tutgan odam", "Begonalar yurmas bu yerda" kabi romanlari bilan adabiy jamoatchilik e'tiborini qozondi.

Adibning 2022-yilda chop etilgan "Sokin daryo" romani ham o'quvchilarni befarq qoldirmadi. Muallif ushbu asarida davrimiz atqoli olimlaridan birining hayoti va faoliyati haqida hikoya qiladi. Bugungi yoshlarimizga ibrat bo'ladigan qahramon siyosini badiiy bo'yoqlarda yorqin tasvirlab berdi.

Yozuvchining, ayniqsa, buyuk alloma Imom Moturidiy hayoti va faoliyati haqida hikoya qiluvchi "Imom Moturidiy" romani adabiyot ixlosmandlari, keng jamoatchilikka katta qiziqish uyg'otdi. Qator taniqli ijodkorlar, muxtassislar, diniy soha olimlari tomonidan yuksak e'tirof etildi. Dramatik voqealarga, qiziqarli, sermazmun bahs-munozaralarga boy ushbu asarda yozuvchi o'z asarlaridagi ko'hna Samarqandning siyosiy-ijtimoiy, qimmatli ma'lumotga, jonli tasavvurga ega bo'ladi.

— "Imom Moturidiy" tili Luqmonning ko'pchilik asarlarini singari xalqona, musiqiy, jozibali hamda eng murakkab fikru tuyg'ular ham ko'pchilikka oson yetib boradigan yo'sinda ifodalangan juda ta'sirli va go'zal o'zbek tili ekanini odamni o'ziga jalb qiladi, — deydi pedagogika fanlari doktori, professor Qozoqboy Yo'ldosh.

Yana bir gap. Davlatimiz rahbari 14-mart kuni "Imom Moturidiy" tavalludining 1155 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qarorni imzoladi. Unda buyuk vatandoshimiz, islomiy ilmlar rivojiga ulkan hissa qo'shgan benazir alloma, kalom ilmining sultoni Imom Abu Mansur Moturidiyning ibratli hayoti yo'li va boy ilmiy-ma'naviy merosini har tomonlama chuqur o'rganishni rag'batlantirish, moturidiylik

orasidagi eng dolzarb muammolarni qalamga oldi. Yozuvchining qator hikoyalarida jamiyatni orqaga tortadigan eng yomon illatlardan biri — loqaydlik, beparvolik qoralanadi. Luqmon Bo'rixon uslubidagi poetik zanjir — badiiy-mantiqiy izchillik omillari uning hikoyalarini bir-biriga bog'lashga xizmat qiladi. Adibning "O'g'il", "Sinov muddati" hikoyalarida bir-biriga juda yaqin holat tasvir etilsa-da, inson loqaydligi, beparvoligi qanday oqibatlarga olib kelishi alohida obrazlar, xarakterlar orqali chuqur ochib beriladi.

2020-yildagi suhbatlarining birida Luqmon aka adabiyotning jamiyatda tutgan o'rini qanday tasavvur etishi haqida bunday degan ekan: "Suvning, havoning inson tirikligida nechog'liq zarurati bo'lsa, adabiyotning ham jamiyat hayotida shunchalik ahamiyati bor. Shu kecha-kunduz qay bir davlatda qandaydir virus paydo bo'libdi. Eshitganlar, vahimaga tushganlar og'iz-burniga bir parcha niqob taqib oldi. Badaniga qandaydir em, dori-darmon yuborayotganlarning ham soni ming. Go'yoki shu yo'llar bilan o'zlarini o'sha baladan himoya qilmoqchi. Jon shirin-da: hamma bilganicha, aqli yetganicha qatol kasallik oldini olish ilinjida chopadi. Xo'sh, odamzodning ma'naviyatiga, qalbiga o'shanday ofatlar xuruj qilsa-chi?! Uni qanday niqob bilan qo'riqlay olamiz? Odamning eng-shurugi, tafakkuriga dorigan o'latning biror emi, muolaja usuli bormi?"

Ha, bor. Buni oqilu donolarimiz ming yillardan beri takrorlab keladi. Ilm, nazm, fashohat, latofat dunyoni, odamni qutqaradi, deyishadi. Bu xalokor omillarning barchasi badiiy adabiyotda mujassam! Ha, adabiyot shunday buyuk najot, ammo ko'p hollarda uning o'zi yordamga, madadga, e'zoz-ehtiroimga muhtoj. Avvalo, adabiyotning o'zini qutqarishimiz zarur! Shoqin-suronidan, johillikdan, yolg'ondan, ta'madan, yalang'ochlikdan asrashimiz lozim. Uni bozorga solmasligimiz kerak! Savdo-sotiqning dag'al va sovuq muomala-munosabatlari unga to'g'ri kelmaydi. Axir adabiyot tirikchilik emas, tiriklik manbai! U hayotning ham, jamiyatning ham mavjudligini ta'minlaydi. Shuning uchun bozor ham, gulzor ham adabiyot xizmatida bo'lishi maqsadga muvofiqdir."

## So'z va amal birligi

Bugun adabiyotga har qachongidan ham ehtiyoj katta. Badiiy so'zga — xalokor so'zga, yuqatuvchi, ruhantiruvchi so'zga tashnalik, ilhaqlik har lahzada, har qadamda sezilib turibdi. Xuddi shu chanoqlikni qondira oladigan, fikrga chorlab, surur baxsh etadigan asarlar kerak. Bu o'ta dolzarb, o'ta mas'uliyatli zarurat. Zarurati, uning zalvorini, eng avvalo, nasr janrining yelkasiga tushadi. Chunki har qanday millat, har qanday el-elat adabiyotining ko'lamin, qiyofasini ko'pincha nasriy asarlar belgilaydi.

"Prezidentimiz, hukumatimiz tomonidan ijodkorlar oldiga zamon qahramonlari obrazini yaratish vazifasi qo'yilgan. O'ta dolzarb, o'ta haqqoniy talab! Chunki davr, hayot o'zgarmogda. So'ngiy yillar millat turmush tarzida, ongida va qalbidagi evrilishlar yuz berdi. Xuddi shu evrilishlar markazidagi bugungi o'zbekning quvonchu tashvishlarini, ichki olamini, ruhiy to'lg'qlarini badiiy asarlarda aks ettirish zarurati pishib yetildi. Qolaversa, bugun dunyo bo'ylab mafkuraviy, g'oyaviy kurash qizg'in pallaga kirdi. Sharqu G'arb madaniyati, axloqi, tafakkuri bashariyat ongini, qalбини egallash uchun o'zaro talashib-tortishmoqda. Uning sharhparali yurtimiz uzra ham kezib yuribdi. Bu talato'plar silsilasida millat taqdiri qanday bo'ladi? Mustaqilligimiz mustahkamlanib, yurtboshimiz boshlagan sharaflari yo'ldan davom etadimi? Milliy qadriyat, milliy madaniyat omon saqlab qoladimi? Kelajak avlodlar oldida yuzimiz yorug' bo'ladimi? Bu xil og'riqli savollarga yozuvchilarimiz zamon qahramonlari obraziga yaratib javob berishi mumkin. Buning uchun badiiy barkamol, samimiyat va xolislikka yo'g'rilgan asarlar yozish kerak bo'ladi."

Yozuvchi o'zining fuqarolik pozitsiyasi aks etgan yuqoridagi fikrlarini vafotidan 2-3 yil oldin yozgan maqolalarining birida ifoda etgan edi. Bu bitiklar quruq gap emasligini o'z ijodi misolida aniq-tiniq ko'rsatib bera oldi.

Nodir MAHMUDOV,  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



— "Imom Moturidiy" tili Luqmonning ko'pchilik asarlarini singari xalqona, musiqiy, jozibali hamda eng murakkab fikru tuyg'ular ham ko'pchilikka oson yetib boradigan yo'sinda ifodalangan juda ta'sirli va go'zal o'zbek tili ekanini odamni o'ziga jalb qiladi, — deydi pedagogika fanlari doktori, professor Qozoqboy Yo'ldosh.

## Xalokor omil

Luqmon aka to vafotiga qadar (2023-yil, iyul), o'zining ta'bi bilan aytganda, "Adabiyot tirikchilik emas, tiriklik manbai" degan aqidaga amal qilib yashadi. O'zbek nasrida o'ziga xos uslubga, o'z ohangiga ega bo'lgan yozuvchi "Begimkul katta", "Yalangoyoq", "Donishmand", "Qaydasan, muhabbat?", "Kechikkan ko'z yoshlar", "Dard", "O'g'il", "Tumor", "Kutilmag'an tashvish", "Kutilgan kun", "Maktub", "Temir sandiq", "Sinov muddati", "Qo'noq", "Cho'ldan kelgan tashvish" kabi qator hikoyalari orqali o'z so'zini aytishga harakat qildi va kitobxonlarning sevimli ijodkoriga aylandi.

Luqmon Bo'rixon mavzu tanlashda jamiyatdagi, ijtimoiy hayotdagi, insonlar

ta'limotiga xos bag'rikenglik va mo'tadillik tamoyillarini xalqimiz va jahon jamoatchiligi o'rtasida keng targ'ib etish, yoshlarni Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlariga hurmat ruhida tarbiyalash maqsadlari aks etgan.

Hujjatda ko'plab vazifalar qatorida Imom Moturidiyning serqirra hayoti yo'li va ilmiy merosining bugungi kundagi ahamiyatini ochib beradigan badiiy-publitsistik film yaratish ham nazarda tutilgan. Nazarimizda, Luqmon Bo'rixonning "Imom Moturidiy" romanida aks etgan syujet ushbu film asosini tashkil qilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

— Bugun ulug' ajdodlarimizni, dunyoga mashhur allomalarimizni e'zozlash, ularning ilmiy-ijodiy merosini chuqur o'rganish, keng targ'ib qilish masalalariga davlatimiz rahbariyati tomonidan alohida e'tibor qaratilmoqda, — degan edi Luqmon Bo'rixon. — Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tashkil etilishi fikrimizning yaqqol dalilidir. Mazkur markaz oldiga qo'yilgan vazifalar, topshiriqlar g'oyat jiddiy va ahamiyatli. Aytish mumkinki, ushbu vazifalarning aksariyat qismi yozuvchilarimiz va shoirlarimizga ham tegishli. Men ham bir qalamkash sifatida buyuk mutafakkir bobomizning siyosini, hayoti yo'li, aqida sofligi, mustahkamligi uchun qat'iy kurashi aks etgan asar qorlashga urinib ko'rdim.

Darhaqiqat, asar g'oyat xalqchil, ravon tilda yozilgan bilan ahamiyatli. Muallif voqealar bayoni va takomilini rivojlantirishda, epizodlarning o'zaro uyg'unligi bog'lanishlarida asosan "eslash" usulidan foydalanagan. Kitobxon ushbu asarni o'qib, uzoq o'timishimiz, buyuk ajdodlarimiz va ularning kurashlari haqida

Navro'z o'zida qadriyat va an'analar ta'yanan holda millatning ma'naviy qiyofasini, o'zligini saqlab qolishi kabi qarashlarni jo qilgani bilan ham o'lmas bayramdir. Bu bayramda keksalar holidan xabar olinib, ko'chatlar ekiladi. Yoshu qari yig'ilib, yangi kunni yilboshi sifatida nishonlaydi. Ko'cha-ko'ya supurilib, qabristonlar tozalanaadi, o'tganlar yodga olinadi. Albatta, bu ayyom bilan bog'liq har kimning o'ziga yarasha xotiralari bor. Boisi, uning ahamiyati bizga yoshlikdan singdirilgan.



Shukuh

# ILDIZI O'ZLIKKA TUTASHGAN KUN

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



\*\*\*  
Uyimizdan uncha o'z bo'lgan joyda qabriston joylashgan. Bayram arafasida qishloq odamlari yig'ilib, uni tozalar, o'tganlarni xotirlardi. Bu ham xalqimizning o'ziga xos qadriyati.

Xayolimda bahor yer yuzidagi hamma tiriklar uchunde kuyulardi. O'sha qabristondan bir oz yurilsa, sal kichik do'nglik bor. Bu — butun qishloq ahli har yili bayramu sayil o'tkazadigan maydon. O'sha tomondan qo'shig'u laparlari eshitilganidan qandaydir bayram boshlanayotganini bilardim. Hovlida hali u-hali bu ishni qilib tinmayotgan ayama borib yalinaridim: "Aya, sayilga boray!" Boshiga oq ro'mol yopib olgan ayam qizarib ketgan ko'zlar bilan og'rinib qaraydi: "Uyat bo'ladi!" "Nega, nimaga uyat bo'ladi? Hamma bayram qilaypti-ku?" "Katta bo'lsang, tushunasan", "Yo'q, hozir ham tushunaman. Boray, ayajon!" "Yo'q, dedim-ku!" Shu chog' negahon kelib qolgan momom "Bo'ldi, chiroyli kiyimlaringni kiy!" Seni o'zim oboraman", deb bayramga olib ketadi.

Bayram. Xuddi kechasi osmondan farishtalar tushib, tuni bilan dov-daraxtlarga qizil, pusti, oq gullar qadab chiqqan, ularning qadami tekkan joydan yam-yashil maysalar unganga o'xshardi. Borganimizda kuy-qo'shig' allaqachon boshlanib ketgan bo'ladi. Momom o'zi tengi kampirlar bilan asta-sekin yurib, qir ustidagi gilamlardan biriga borib o'tiradi. Men sayilga kelgan bolalarga qo'shilib ketaman. Bir mahal davraboshi "Endigi navbat "Bahor valsiga", deb e'lon qiladi. Ro'parada bitiruvchi sinf qizlari ko'rinadi. Sarvqomat, sochi mayda o'rilgan, bir-biridan go'zal qizlar raqsga tushmoqda. Qo'lida bodom guli, boshida yashil chambarak. Bir-biridan nafis harakatlari... Hammasiga bir xil pusti ko'ylak juda yarashgan. Bola ko'nglim bilan ularga mahliyo bo'laman. Keyin bir og' o'ziga chiqadi, maqom aytadi, hamma og' o'ziga lib qoladi. O'yinga chalg'ib ketibman, shekilli, eshitmabman, qo'shimizni qizi yonimga keladi. "Momong chaqiryapti", deydi. Borsam, momom "Hozir Navro'zoy keladi. Shu yerda qimirlamay o'tir", deb tayinlaydi. Ozroq o'tar-o'tmas, chakkasiga o'rik guli qistigan Malika opam davraga chiqadi: "Ehe-eyey! Odamlar odamlar! Biog'da bitgan bodomlar! Eshitmadim demanglar! Yurtingizga Navro'zoy keldi!"

O'shanda Malika opa mahalladagi faol xotin-qizlardan biri edi. Negadir u Nurullo akaning ayoli ekanini, uyida ikkita bolasi borligini yaxshi bilsa ham hamma uni Navro'zoy deb tasavvur qilar, har bir gapiga jon-dili bilan quloq solardi. Malika opa shirali ovozda qo'shiq kuylaydi. Uning tovushiga mahliyo bo'lib qolaman. Tasavvurimdagi Navro'zoy ham aynan shunday ovozi bo'lishi kerak edi...

Bir yonda bolalar chuyvillashib xo'roz urishtiraypti. Bir yonda o'spirin qizlar mahoratini ko'z-ko'z qilish uchun chuchvara tugmoqda. Ayniqsa, "Balli, qizlar!" bellashuvi qizg'in tus oladi. Eng chaqon, eng dono, eng sarishta qiz keyingi sayilgacha qishloq'imizning faxriga aylanaadi. Maydonni o'rab olgan yosh-yalang

orasida kuzda to'yi bo'lgan kelinchaklar ham ko'rinish qoladi.

Bir payt Ochildi muallim e'lon qiladi: "Endi navbat milliy o'yinlarimizdan biri — kurashga!" Biz tarafdarda kurashni "o'lish" deyishadi. Ochildi muallim boshqa payt "o'lish" desa ham hozir sahnadan turib murojaat qilarkan, adabiy tilda gapirishga, ziyoli ko'rinishga urinadi. Har gapning birida "Bolalar bizdan o'rganadi-dat!" deyishi shundan. Kurashni birinchi bo'lib Eson rais bilan Turdi chol boshlab beradi. Ularning kurashini tomosha qilish bir tomondan zavq bersh, boshqa tomondan qanday kurashishga o'rgatadi. Maydonning kunchiqar tarafida yomqachi savdogarlar olmaqad, xo'rozqand, pista holva, saqichga o'xshagan mayda-chudyalardan qo'rtiradi. Ular tomon ahyon-ahyon qarab qo'yayotganini ko'rgan momom do'ppisini qo'lga olib, astariga qistirib qo'ygan mayda pulni qo'limga tutqazadi: "Bor, xohlaganigini olib yet!" Boshim osmonga yetgudek yugurib ketaman.

Bundan tashqari, biz tarafdarda chillak, eshak mindi, bestosh, arqon tortish kabi o'yinlar ham bor. Masalan, bestoshni, asosan, qizlar o'ynasa, arqon tortish, eshak mindi, chillak — o'g'il bolalar o'yini. Odatda bir ko'chaning bolalari jamoa-jamoa bo'lib o'ynaydi. G'oliblar nomiga ko'chasingin nomi yoki shu ko'chada yashaydigan yoshi katta odamlarning ismi qo'shib aytiladi. Shuning uchun har ikkala tomon ham g'olib bo'lish uchun astoydil harakat qiladi.



Maydonning uncha ko'zga tashlanmaydigan narigi tomonida qizaloqlar kichkina beshikni o'rtaga qo'yib, birin-ketin tebratib o'tiribdi. Onalari matodan tikib bergan qo'g'irchoqni hali unisi, hali bunisi o'pib, erkalab, chaqaloqday belab qo'yg'an. Bir qarich bolalar boshqalar oldida o'zini kattalarday tutishga qarab kulging keladi. Tushga tomon qirga eng yaqin xonadon — Farhod akaning uyidan sumalak keldi, hammaga tarqatildi. Ma'lum bo'lishicha, u yerda qishloq ayollari ertalabgacha sumalak pishirgan. Momom ham ulan bilan tong o'ttirgan, ertalab meni olib kelish uchun uyga borgan ekan. Bayram tugab, qaytib kelganimizda ayam sumalakni ko'rib juda quvonadi. Men aytib bergan bayram taassurotlarini eshitib, "Nasib etsa, keyingi yil birga boraylik!" deb duo qildi.

Xotiramga Navro'z ana shunday birluk ramzi, shukhi baland bayram bo'lib muhrangan. Har safar u haqda gap ochilsa, qishloqdoshlarning o'sha shodiyonasi, quvonchini ko'z oldimga keltiraman. Quloqlarim ostida esa Malika opaning shirali ovozi bilan aytilgan "Navro'z kelibon jumlay jahon nozlana, nozlana, nozlanajakdir..." qo'shig'i jaranglay boshlaydi.

Gulmira ABDIRAIMOVA,  
magistrant

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati DM

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

MUASSIS:  
O'zbekiston Respublikasi  
Vazirlar Mahkamasi

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul. Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-146. 37346 nusxada bosildi. Hajmi — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-mabaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Navbatchi muharrir: Bashorat Yunusova  
Musahhib: Asliddin Abdurazaqov  
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzillimiz:  
100060, Toshkent shahri,  
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy